

QASHQADARYODAGI ULKAN BUNYODKORLIK ISHLARI, YANGILANISHLAR SHUKUHI ODAMLAR HAYOTIGA KIRIB BORMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, islohotlar natijadorligi bilan yaqindan tanishish maqsadida 19-20-iyun kuni Qashqadaryo viloyatida bo‘ldi.



Ko‘kdala tumanida 20-iyun kuni Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari viloyatda ulkan o‘zgarishlar bo‘layotgani, islohotlar odamlar hayotiga kirib borayotganini qayd etdi.

Oldinlari viloyat sanoatining yarmidan ko‘pi neft-gaz va kimyo tarmog‘iga to‘g‘ri kelardi. So‘nggi yillarda elektr texnikasi, qurilish materiallari, to‘qimachilik, mebelchilik sohalarida “katta sakrash” bo‘ldi. Hozir bu tarmoqlarning sanoatdagi ulushi 54 foizni tashkil etyapti.

Lekin hayot to‘xtab turmaydi, hali qilinadigan vazifalar ko‘p. Tahlillarga ko‘ra, Qashqadaryoda ishga solinmagan kamida 15 milliard dollarlik salohiyat bor. Bu imkoniyatlarning uchdan biri loyihaga aylantirilsa ham, viloyat yalpi hududiy mahsulotini kelgusi besh yilda bemaol 10 milliard dollardan oshirish mumkin.

Ma‘lumki, jadal rivojlanish dasturiga kirgan tumanlarda “Islohotlar shtabi” tuzilmoqda.

Shahrisabz, Yakkabog‘ va Ko‘kdalada ishga tushgan yangi loyihalar bunda tayyor andoza ekani ta‘kidlandi. Endi shunday shtab viloyatning boshqa tumanlarida ham bo‘lishi belgilandi.

Prezidentimiz viloyatni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Eng katta zaxira qishloq xo‘jaligi yerlari ekani qayd etildi. Misol uchun, Qashqadaryodagi sug‘oriladigan qishloq yerlari 515 ming gektarni, tomorqa va bog‘dorchilik yerlari 45 ming gektarni tashkil qilib, respublikada birinchi o‘rinda.

Bundan tashqari, viloyatda 1,3 million gektar yaylov va o‘rmon yerlari mavjud. Endi ulardan samarali foydalanish uchun alohida kompaniya tashkil qilinadi. Investitsiya jalb qilish, loyihalarni moliyalashtirish va ulush bilan kirish uchun unga aksiyadorlik jamiyati maqomi berilib, Kuzatuv kengashiga Bosh vazir rahbarlik qiladi. Kompaniyaga dastlabki bosqichda

100 million dollar ajratiladi. Bu mablag‘ va qo‘shimcha investitsiya hisobiga, ikki yilda viloyatdagi kamida 200 ming gektar yaylov va o‘rmon yerlari lazerli tekislanib, suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinadi.

Qashqadaryoda chorvachilikni kompleks rivojlantirish dasturi boshlanadi. Buning uchun Qishloq xo‘jaligi jamg‘armasidan 12 oygacha 14 foizli kreditlar ajratiladi. Bu orqali viloyatdagi 127 ta chorvador to‘liq quvvatga chiqadi. Yeri ham, fermasi ham borlarga imtiyozli mablag‘ beriladi.

Yil boshidan beri viloyatda meva-sabzavot eksporti 2 karra oshib, 62 million dollarga yetgan. Ayniqsa, Ko‘kdala tarvuzlari mashhur. Qashqadaryoda buni pomidor bo‘yicha ham qilsa bo‘ladi. Shu maqsadda 13 ta tumandagi 6 ming gektar yerda pomidor yetishtirish yo‘lga qo‘yildi.

Kartoshkachilik uchun 10 foizdan 12 oy muddatga imtiyozli kredit ajratiladi. Bu tarmoqqa zarur texnikalar import bo‘jidan ozod etiladi, yuqori avlodli urug‘ xarid qilishda

qo‘shilgan qiymat solig‘ining 50 foizi qaytarib beriladi.

Aholini ishli qilish va kambag‘allikni qisqartirish eng dolzarb masalalardan. Yil boshidan 284 ming odamning bandligi ta‘minlangani bilan yana minglab ishsizlar bor.

Shu bois, bu yil Qashqadaryoda 470 ming kishini band qilish, 150 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shahrini “ishsizlik va kambag‘allikdan xoli hudud”ga aylantirish bo‘yicha katta marra olingan.

Xususan, Shahrisabz, Qamashi, G‘uzor va Chiroqchi tumanlaridagi tabiat go‘shalarida turizm maskanlari barpo etiladi. Ko‘kdaladagi Chiyal bozorida yaxna tayyorlovchilar uchun sharoit va sanitariya yaxshilani, gastronomik turizm kengaytiriladi. Shahrisabz shahri Qorasuv mahallasida temirchilik markazi tashkil qilinadi.

Ishsiz fuqarolar xorijiy tillarga o‘qitilib, yuqori daromad beradigan mamlakatlarga ishga yuboriladi. Auktsionda sotiladigan 120 dan ortiq obyekt va 400 gektar yer negizida korxonalar tashkil etib, 70 ming ish o‘rni ochish choralari ko‘riladi.

Bu yil Qashqadaryoda 3,5 milliard dollar investitsiya bo‘yicha katta marra olingan. O‘tgan besh oyda Koson, Kitob va Chiroqchida investitsiya qariyb 2 karra oshgan.

Viloyatdagi konlar investitsiya jalb etib, qo‘shilgan qiymat yaratish uchun katta imkoniyat ekani qayd etildi. Masalan, Kitobdagi 5 ta istiqbolli maydonda 39 tonna oltin, Chiroqchida 10 ming tonna noyob metallar zaxirasi aniqlangan. Qurilish materiallari sohasida 150 million dollarlik 16 ta loyiha tayyorlangan.

Muborakdagi gazni qayta ishlash zavodi atrofidagi infratuzilmadan foydalanib, 200 gektar maydonda innovatsion sanoat zonasi tashkil etiladi. Unda klaster tizimi asosida neft-kimyo, elektrotexnika, robototexnika va qurilish materiallari bo‘yicha 5 ta yirik loyiha amalga oshiriladi.

Viloyat paxta yetishtirish bo‘yicha yetakchi bo‘lsa-da, to‘qimachilik sanoatidagi ulushi 10 foizga ham yetmaydi. Bu sohada 400 million dollarlik 35 ta loyiha boshlanadi. Joriy yil ip-kalavani qayta ishlash 51 foizga, kelgusi yili 100 foizga yetkazish choralari ko‘riladi.

Bunday iqtisodiy loyihalar uchun rivojlangan infratuzilma zarur. Masalan, “G‘uzor — Buxoro — Nukus — Beyneu” yo‘lining viloyatdan o‘tgan 100 kilometrini rekonstruksiya qilish hisobiga tranzit salohiyatini 3 karra oshirish mumkin.

“Qarshi — Shahrisabz — Kitob” magistral yo‘lining 106 kilometri rekonstruksiya qilinib, 2 tasmadan 4 tasмага o‘tkaziladi. Bu loyiha

doirasida Qamashi va Yakkabog‘ markazidan aylanib o‘tadigan 34 kilometrli yangi yo‘l ham barpo etiladi. Islom taraqqiyot banki ishtirokida “Toshkent — Termiz” yo‘lining Qashqadaryodan o‘tgan 60 kilometri ham 4 tasmasi qilinib, sement-beton qoplamaga o‘tkaziladi.

Aholining turmush sharoitlarini yaxshilash uchun 7 ming 700 ta xonadonli uylar barpo etiladi. Bu yil 183 kilometr suv va kanalizatsiya tarmog‘i, 8 ta suv inshooti quriladi.

Yig‘ilishda yoshlar bandligini ta‘minlash, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish masalalariga ham to‘xtalib o‘tiladi. Ularni “Yoshlar biznesi” dasturiga, oliygo‘h bitiruvchilarini “Kelajakka qadam” dasturiga qamrab olib, tadbirkorlik va bandligiga ko‘maklashish vazifasi qo‘yildi.

Ko‘rib turganingizdek, Qashqadaryoda rejalashtirgan ishlarimiz ko‘p. Amir Temurdek buyuk ajdodimizdan jasorat, matonat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarini meros qilib olgan mehnatsevar, samimiy va oliyjanob viloyat ahli bilan oldimizga qo‘ygan ulkan marralarga albatta erishamiz. Aminmanki, qashqadaryoliklar barcha islohotlarimizning oldingi safida bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan viloyat va tuman hokimlari, tarmoq rahbarlari axborot berdi, tadbirkorlar va jamoatchilik vakillari bilan mulotoq qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumani ma‘muriy markazidagi ulkan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Bu tuman davlatimiz rahbari tashabbusi bilan aholiga qulayliklar yaratish, urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida uch yil avval tashkil etilgan edi. Shundan so‘ng hudud rivoji jadallashib ketdi. Bugun Yetitotom yaqinida yangi shahar paydo bo‘lmoqda.

Avvalo, 120 kilometr suv, 210 kilometr elektr tarmog‘i qurilib, zarur infratuzilma yaratildi. Yo‘llar kengaytirib, ta‘mirlandi. Ma‘muriy binolar, 19 ta maktab, 22 ta bog‘cha, ko‘p tarmoqli shifoxona va oilaviy poliklinika barpo etildi.

E‘tiborlisi, tuman hokimligi binosi mamlakatimizda yangi tajribaneng boshlanishi bo‘ldi. Bu yerda 38 ta davlat idorasi bir joyda jamlangan. Bu aholiga katta qulaylik yaratmoqda. Avvallari biror yumush yuzasidan olis masofalarni bosib, Chiroqchi tumani idoralarga qatnagan fuqarolar endi barcha xizmatlarni o‘ziga yaqin joyda oloyapti.

Prezidentimiz Ko‘kdaladagi bunyodkorlik, bunday yaxlit va mutanosib sharoitlar barcha tumanlar uchun namuna ekanini ta‘kidladi.

Xususan, “Inson” markazi ham hokimlik binosida joylashgan. Bu yerda aholi uchun ijtimoiy xizmatlar va yordamlar bir nuqtada kompleks shaklda taqdim etiladi. Uning dasturiy tizimi 55 ta daxldor tashkilotlarning ma‘lumotlari bilan integratsiya qilingan. Bolalar, nogironligi bor insonlar, keksalar va ijtimoiy to‘lovlar tizimi o‘zaro bog‘langan.

Davlatimiz rahbari tuman markazidagi Yetitotom kichik sanoat zonasida ham bo‘ldi.

To‘rt gektar maydonda to‘qimachilik, oziq-ovqat, qurilish va xo‘jalik mollari kabi yo‘nalishlarda qiymati 10 million dollarlik to‘qqizta kichik loyiha joylashtirilgan. Masalan, “Komfort Star New” korxonasida isitish qozonlari va boshqa temir mahsulotlar, “Komfort Industrial Aria”da chinni buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Umuman, sanoat zonasida 600 dan ortiq doimiy ish o‘rni ochiladi.

Prezidentimiz yangi bunyod etilgan san‘at saroyini ham borib ko‘rdi.

Bu yerda 255 o‘rinli tomosha zali, ko‘plab to‘garak xonalari bor. Saroy zamonaviy cholg‘u asboblari bilan ta‘minlangan, ovoz yozish studiyasi, ovoz kuchaytirish moslamalari, mukammal sovitish va isitish tizimi bilan jihozlangan.

Diqqatga sazovor jihati, tumandagi san‘at maktabi, umumta‘lim maktabi va sport majmuasi u bilan yaqin joylashgan. Davlatimiz rahbari bu bolalarga qulay bo‘lishini ta‘kidlab, kelgusi loyihalarda shuni qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezidentimiz yosh ijrochilarning badiiy chiqishlarini ham kuzatdi.

— Sizlarni ko‘rib, Amir Temur bobomiz yurtida iste‘ddolar ko‘pligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. G‘ayratli bo‘lib, bilim olishdan to‘xtamasangiz, O‘zbekiston buyukligining zaminini sizlar bo‘lasiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev yoshlarga qarata.

Markazda, shuningdek, bolalar maydonchalari, yashil hududlar, savdo va servis markazlari uyg‘unlikda qurilmoqda. Umuman, 200 dan ortiq obyekt barpo etildi. Bu bunyodkorlik va qulayliklardan aholi mamnun.

Hududda yana ijtimoiy soha obyektlari, kutubxona, sport maydonlari, madaniyat markazlari qurilishi davom etmoqda.

Shuning bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga tashrif yulandi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘lmas BAROTOV,
O‘ZA muxbirlari



DAVLAT XIZMATINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA SAMARQAND MULOQOTI



SOHA KELAJAGINI BELGILAB BERUVCHI VOQELIKKA AYLANADI

Bugungi kunda O‘zbekiston jahon hamjamiyatining faol ishtirokchisi sifatida global tashabbuslarni ilgari surib, xalqaro maydondagi o‘rnini mustahkamlamoqda. Ayniqsa, BMTning mas‘uliyatli a‘zosi sifatida jahon hamjamiyati oldidagi majburiyatlarini bajarib, tinchlik, barqaror rivojlanish, inson huquqlari, ekologik xavfsizlik va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston ko‘plab nufuzli xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilmoqda. Shu yil 23-25-iyun kunlari Samarqandda ana shunday global ahamiyatga ega yirik tadbirlardan biri — BMTning Davlat xizmati forumi (UN Public Service Forum 2025) bo‘lib o‘tishi kutilyapti. E‘tiborlisi, forum dunyo miqyosida Xalqaro davlat xizmati kuni nishonlanadigan sanada start oladi.

Forumda davlat xizmati sohasini isloh qilishning innovatsion yechimlari ko‘rib chiqiladi, yoshlarni davlat xizmatiga jalb qilish va bu sohani ommalashtirish masalalari muhokama etiladi, davlat boshqaruvida shaffoflik, samaradorlik va adolat tamoyillarini rivojlantirish imkoniyatlari yuzasidan tajriba almashiladi. Shuningdek, bunday tadbirlarda davlat xizmatchilarning jamiyat rivojidagi o‘rni va xizmatlari e‘tirof

etiladi, BMTning “Public Service Awards” — davlat xizmati sohasida innovatsion va samarali tashabbuslar uchun mukofotlar topshiriladi.

BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti (UN DESA) tomonidan O‘zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligi, O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish va Strategik islohotlar agentliklari hamkorligida tashkil etilayotgan forumda turli mamlakatlardan davlat hokimiyati vakillari, siyosatchilar, davlat boshqaruvi bo‘yicha ekspertlar, amaliyotchi mutaxassislar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati hamda ilmiy-akademik doira vakillari ishtirok etadi.

Davomi 3-betda

PARKENTNING ZAMONAVIY QIYOFASI

QANDAY BO‘LADI?

Erta tongdan hamkasbim bilan yana xizmat safari bo‘yicha yo‘lga tushdik. Bu galgi manzilimiz Toshkent viloyati Parkent tumani. Shu kunlardagi issiqda so‘lim tabiatli, poytaxt havosidan ancha salqin, tog‘ havosida hordiq chiqarish uchun Parkent ayni muddao bo‘ladi. Ammo biz dam olishga emas, balki shu maqsadda o‘sha tomonlarga yo‘l oladigan aholi, xorijlik mehmonlar uchun bugun hududda yaratilayotgan yangi sharoitlarni ko‘rishga otlandik.



Prezident tashrifidan so‘ng

Bir muddat ilgari Parkent tomonlarga o‘tganimda katta qurilishlarga ko‘zim tushgandi. Yo‘l chetida qad rostlayotgan ko‘p qavatli uylarni ko‘rib, biror tadbirkorga tegishli bo‘lsa kerak degan o‘y o‘tgan. Ammo bilsam, Parkentda jadallik bilan davom etayotgan qator yirik loyihalar bundan bir yil oldin davlatimiz rahbari topshirig‘i bilan boshlangan ekan. Aholi uchun turar joy maskanlari, yangi yo‘llar, dam olish va istirohat bog‘lari, turizm obyektlari qurilishi kabi loyihalar ko‘lami nihoyatda keng. Avval tuman ijtimoiy-iqtisodiy hayotida birdaniga bunday katta hajmdagi ishlar amalga oshirilgani haqida eshitmagandik. Hozirgi shiddat ancha yuqori, hatto qisqa vaqtda loyihalarining ayrimlari birin-ketin foydalanishga topshirilmogda.



Davomi 4-betda

MAQSAD – XALQ ROZILIGIGA ERISHISH

Xurshid USMONOV,
Qamashi tumani hokimi



Yangi O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlar bugun yangi bosqichga chiqdi. Bunga Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog'ida yana bir bor amin bo'ldik. Barcha sohada yangi loyihalar, tub islohotlar borasida tashabbuslar ilgari surildi. Umuman, keyingi yillarda viloyatimiz tubdan o'zgardi. Xususan, sakkiz yil avval viloyat sanoatining yarmidan ko'pi neft-gaz va kimyo tarmog'i korxonalariga to'g'ri kelardi. O'tgan davrda elektrotexnika, qurilish materiallari, to'qimachilik, mebelchilik sohalarida katta sakrash bo'lgani e'tirof etildi. Hozirda bu tarmoqlarning sanoatdagi ulushi 54 foizni tashkil etmoqda. Iqtisodchilar yaxshi biladi, bu oddiy odamlar hayotida tub o'zgarish yasaydigan darajada katta islohotdir.

Davlatimiz rahbari mazkur yangilanishlar jarayonida qashqadaryoliklar faollik ko'rsatishiga ishonch bildirdi. Albatta, bunday chaqirigacha butun voha ahli labbay deb javob berdik. Ayniqsa, biz — mas'ullar bu safarbarlikda oldingi o'rinda bo'lishimiz zarur. Buni yaqinda davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham teran his etgan edik.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi, aholini o'ylantirayotgan masalalarga yechim topish yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishdagi fikrlar, berilgan vazifalar mahalliy rahbarlarni chuqur xulosa chiqarib, ish uslubini tubdan qayta ko'rib chiqishga undadi. Yig'ilishda mamlakatimizdagi islohotlar natijadorligi, joylardagi aks sadosi, odamlarning

kundalik turmushiga ta'siri haqida to'g'ri va ochiq tahlillar aytiladi. Davlatimiz rahbari bir necha bor ta'kidlaganidek, islohotlar qog'ozda emas, hayotda o'z ifodasini topishi kerak. Buni esa xalqimizning kayfiyatidan, ertangi kunga ishonchi va bajarilayotgan ishlar ko'lamidan bilib olish mumkin.

Davlatimiz rahbari "Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turadi" deb bejiz aytmadi. Bu so'zlar, men uchun ham, jamoam uchun ham faoliyatimizning asosiy yo'nalishiga aylanadi. Bu endi mas'uliyat emas, majburiyattir.

Endi iqtisodiyot, investitsiya, qishloq xo'jaligi, bandlik, qurilish, yoshlar va xotin-qizlar masalalari bo'yicha tegishli tuman bo'limlari hokimlik tizimiga o'tkazilmoqda. Byudjet mablag'i ustidan to'liq javobgarlik va mustaqil qaror qabul qilish imkoni berilyapti. Bu tizim nafaqat natija talab qiladi, balki har bir natijaga egalik hissini ham yuzaga chiqaradi.

Tumanda "Islohotlar shtabi" tashkil etilib, mahallalar kesimida aniq va hayotga yaqin loyihalarni o'z ichiga olgan uch yillik dastur ishlab chiqiladi. Bu orqali har bir mahallada qanday o'zgarish bo'lishi, qaysi xizmatlar yo'lga qo'yilishi, qay turdagi ish o'rinlari yaratilishi oldindan aniq bo'ladi. Budjet, infratuzilma, tadbirkorlik, investitsiya va bandlik dasturlari aynan shu reja asosida shakllantiriladi.

Yig'ilishda e'tibor berilgan yana bir muhim jihat Xalq qabulxonalarining haqiqiy mazmunini tiklash masalasi bo'ldi. Aholi bilan muloqotni yanada samarali tashkil qilib, haftasiga bir necha marta joylarga borib, fuqarolarni to'g'ridan to'g'ri tinglash, muammosini joyida hal etish faoliyatimizning kundalik qismiga

aylanadi. Murojaatlar e'tiborsiz qolmaydi, hech bir masala ertaga qoldirilmaydi.

Biz tashabbuskorlik, hamjihatlik va natija bilan ishlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Yoshlar, xotin-qizlar va faol tadbirkorlar bilan yaqin muloqotni yanada kuchaytiramiz. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish, zamonaviy agrotexnologiyalar va qayta ishlash tarmoqlarini kengaytirish borasida izchil ishlar qilinadi.

Joriy yilda tumanimizning 8 ta mahallasida "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida yangi sug'orish tarmoqlari barpo etildi. Bu aholining tomorqadan samarali foydalanishi va daromadini oshirishga keng yo'l ochdi. Endi mazkur ishlar mantiqan davom ettirilib, mahallalarda suv chiqarish, elektr va yo'l infratuzilmasini yaxshilash, shuningdek, sayilgohlar va bolalar maydonchalari sonini ko'paytirish ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Oldimizda aniq yo'l, maqsadlar turibdi. Endi har bir daqiqadan unumli foydalanib, xalqimizning ishonchiga munosib bo'lish uchun ishlamaymiz. Barcha reja va sa'y-harakatlarimizni odamlar hayotini yaxshilash, har bir xonadonda farovonlikni ta'minlashga qaratganimiz. Endi bu ishlarni yanada tizimli, samarali va xalq manfaatiga xizmat qiluvchi tarzda davom ettiramiz. Biz bugun, albatta, erishamiz. Chunki bugun barcha zarur vazifani belgilab oldik. Endi faqat amal, natija va xalq roziligi yo'lida harakatdamiz. Ertaga bu o'zgarishlarni odamlar hayotida, yuz-ko'zida ko'ramiz. Biz bunga to'la ishonamiz. Zero, xalq xizmatiga mas'uliyat bilan yondashish eng birinchi va doim dolzarb burchimizdir.

HAR BIR MUROJAAT ORTIDA INSON TAQDIRI, DARDI VA UMIDI TURIBDI

Odamlarning turmush darajasi va daromadini oshirish mamlakatimizdagi islohotlarning asosi hisoblanadi. "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili asosida yillarki insonlarning ko'nglidagi tugunlar yechildi, hayotiy ehtiyojlarga yechim topildi. Eng olis, chekka hududlar infratuzilmasi yaxshilandi, hududlarga sanoat kirib borib, yangi texnologiyalar asosidagi korxonalar soni keskin oshdi. Natijada aholining daromad topishi, munosib ish bilan ta'minlanishi, zamonaviy kasb egallashi uchun faqatgina shahar yo tuman markazida emas, balki olis qishloqlarda ham zarur sharoitlar yaratildi.

Bugungi notinch va zamonaviy tahdidlar avj olgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni mustahkamlash, investitsiyaviy muhitni yaxshilash borasidagi islohotlar natijasida tarmoqlar bo'yicha ko'rsatkichlar o'sib bormoqda.

So'nggi sakkiz yilda yurtimizda yalpi ichki mahsulot ikki barobar ko'payib, 115 milliard dollarga yetdi. Bu ko'rsatkichni 2030-yilga borib, 200 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. O'tgan yili investitsiya hajmi 35 milliard dollarga, eksport esa 27 milliard dollarga yetgan. Buni yanada oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari, xorijiy korporatsiyalar bilan doimiy hamkorlik yo'lga qo'yilib, O'zbekiston global savdo zanjirlarida munosib o'rinni egallashga intilmoqda.

Biznesni qo'llab-quvvatlash, hududlarni sanoatlashtirish uchun kichik tadbirkorlardan tortib, yirik investorlargacha berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar ham yildan yilga ortib boryapti. Bu esa, o'z navbatida, har bir hududda yuqori daromadli qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishi, faqat xomashyo emas, balki qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Yana bir muhim jihat. Dunyoning ilg'or tajribasi asosida mutaxassislar, malakali kadrlar avlodi shakllandi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning sanoat, axborot texnologiyalari, xizmat ko'rsatish, turizm kabi yetakchi tarmoqlaridan tortib, kichik va o'rta biznes, kooperatsiya loyihalarigacha har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ushbu chora-tadbirlar aholining hayot sifatini yaxshilab, bugundan rozi bo'lib yashashi va ertangi kunga ishonchini mustahkamlayapti. Bu jarayonda ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish esa bugunning dolzarb vazifalaridan.

Prezidentimiz raisligida shu yil 16-iyun kuni islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiyinatotgan masalalar tahlili bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida ham eng dolzarb muammolar bo'yicha chuqur tahlil va ularning yechimlari belgilangan aniq rejalar muhokama qilindi. Eng muhimi, aholi va biznes bilan muloqotni yanada kuchaytirib, ular so'rayotgan masalalarni tezda hal qilib berish rahbarlarning asosiy vazifasi bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

— Har bir murojaat ortida inson taqdiri, uning dardi va umidi turganini unutmashimiz kerak. Xalqning dardi bilan yashash biz uchun majburiyat, — dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda vazirlik va hokimliklar ishidagi muammolar tahlil etildi. Qayd etilganidek, har bir tumandagi 40 dan ortiq tashkilotda o'rta 500 xodim ishlaydi. Ularning viloyatda idorasi, boshlig'i bor. Lekin ayrim oddiy masalalarni hal qilish uchun viloyatdan, ular esa respublikadan ruxsat olishi kerak. Yoki vakolati va mablag'i yetarli bo'lgan tashkilotlar o'zini "nazoratchi" deb bilib, aholining og'irini yengil qilish bilan shug'ullanmayapti.

Suv va kanalizatsiya xizmatidan tushgan mablag'ning 10 foizi tumanlarda qolyapti. Lekin zarur materiallarni tayyor turmagani uchun 2-3 soatda hal bo'ladigan avariya 4-5 kunga cho'zilyapti. Qachon avariya bo'lsa, keyin material sotib olinaypti.

— Yig'ilishda tashkilotimiz zimmasiga qator vazifalar yuklandi, — deydi Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari Mehriddin Abdullayev. — Bundan buyon ijro intizomiga Hisob palatasi mas'ul bo'ladi, uning vakolatlari kengaytirilishi belgilandi. Endilikda Hisob palatasi qarorlar bilan berilgan mablag'larning faqatgina to'g'ri sarflanishini emas, balki nima samara berganini, aholi bundan qanchalik rozi bo'lganini ham o'rganadi. Shu bilan birga, palata raisi har bir qaror ijrosi natijadorligini tahlil qilib, zaif nuqtalar va ishlamayotgan tizimlar bo'yicha takliflari har oyda Prezidentga kiritadi.

Shuningdek, Hisob palatasiga bir oy ichida Toshkent shahrida o'zini oqlagan "Xalq nazorati" elektron portalini butun respublikada ishga tushirish topshirig'i berildi. Ushbu portal orqali aholi qurilish, obodonlashtirish va infratuzilma muammolarini suratga olib, aniq manzillini ko'rsatgan holda mobil ilova orqali yuboradi.

Masalaning yechimi ham fotosurat bilan tasdiqlanadi. Ularning qanchalik tez va sifatli hal etilishiga qarab hokimlar faoliyati kunlik baholab boriladi. Bu tizim murojaatlarning yagona platformasi bo'ladi va unga barcha vazirlik, idora, hokimliklar ulanadi.

— Asosiy e'tibor joylardagi ishlar natijadorligi, samarasi, aholini qiyinatotgan muammolar yechimiga qaratildi, — deydi "O'zsvu'ta'minot" AJ boshqaruvi raisi vazifasini bajaruvchi Ahmad Suvonqulov. — Qayd etilganidek, suv va kanalizatsiya xizmatidan tushgan mablag'ning 10 foizi tumanlarda qolyapti. Lekin ishini tashkil etishdagi kamchiliklar tufayli muammoni bartaraf etish cho'zilyapti. Bu jihat davlatimiz rahbarining haqli e'tiroziga sabab bo'ldi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, hozir yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. 2030-yilga borib, mamlakatimizda ham suv tanqisligi kuzatilishi hamda buning oqibatida O'zbekiston dunyodagi suv tanqis bo'lgan 33 davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli yo'q emas. Albatta, bu jihat xavotirli va har bir insonni o'ylantirishi kerak. Shunday ekan, suvni tejash va undan oqilona foydalanish shu yurtda yashayotgan har bir fuqaroning burchidir.

Mamlakatimizda bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, suv sarfi hisobini tartibga solish, yo'qotishlar darajasini kamaytirish, mavjud tarmoqlarning raqamli xaritasi va aktivlarini joriy etish hamda sohada "yashil iqtisodiyot" ko'lamini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2025-yil yanvar oy iholatiga ko'ra, O'zbekiston aholisining 81 foizi markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlangan. So'nggi olti yilda ichimlik suv ta'minotini yaxshilashga 10 trillion so'mga yaqin mablag' sarflandi. Ushbu mablag' hisobidan 1176 ta suv inshooti, 20,8 ming kilometr ichimlik suv tarmog'i tortildi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida sudvan oqilona foydalanish madaniyati va suv ishlatish samaradorligini oshirish borasida qator vazifalar belgilangan. Xususan, suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvatini 300 ming gektarga yetkazish, barcha ichimlik suv iste'molchilariga hisoblagichlar o'rnatishni ta'minlash, ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi, sifati, suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalari samaradorlik ko'rsatkichlarini joriy etish masalalari shular jumlasidan.

Bu yilga mo'ljallangan davlat dasturida ham bu vazifalar o'z aksini topdi. 2025-yilda sarflanayotgan suv hisobi va hisoboti to'liq yuritilishini ta'minlash maqsadida magistrat kanallar va muhim suv obyektlarida suvning yagona onlayn hisobini yuritish tizimi joriy etilishi, 1,8 ming kilometr ichimlik va oqova suv tarmog'i tortilishi, 77 ta ichimlik va oqova suv inshooti qurilishi hamda rekonstruksiya qilinishi belgilangan.

Eng muhimi, ichimlik suv tizimida ma'nan eskirgan 746 ta nasos uskunasi energiya-tejamkorligiga almashtirildi, hududlarda 65,2 megavat quvvatga ega quyosh panellari o'rnatildi. Suv inshootlari va magistrat suv tarmoqlariga 955 ta zamonaviy suv hisoblagich o'rnatildi va barcha ichimlik suv ta'minoti korxonalarida sifat monitoringini yuritish va ma'lumotlarni boshqarish markazlari yaratildi.

Ayni paytda mamlakatimizning barcha hududlarida ichimlik suv ta'minoti bilan shug'ullanadigan tashkilotlar mavjud. Respublika byudjeti, xalqaro moliya tashkilotlaridan olib berilayotgan maxsus texnika vositalarini joylarga yetkazish va buni nazorati qilish borasida zarur chora-tadbirlar belgilab olingan.

Endilikda Surxondaryo viloyati va 16 shahar va tumanda soha mutasaddilari va yetakchi tadbirkorlardan iborat "Islohotlar shtabi" tuzildi. U orqali mahallalar kesimida loyiha, infratuzilma, moliyaviy manba, kadrlar masalasini qamrab olgan uch yillik dastur tayyorlanadi. Kelgusi yil uchun byudjet, infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat, investitsiya va bandlik dasturlari shu asosda tasdiqlanadi.

Yana bir muhim yangilik, ishchan va jozibador muhit yaratish uchun 1-avgustdan barcha viloyat va tuman hokimliklarida ish haqi oshirildi, xodimlarga ishga qarab oylik ustama va qo'shimcha bonus beriladi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar mutasaddilarning mas'uliyatini yanada oshirish, avvalo, aholi bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yib, muammolarni bartaraf etish borasidagi ishlarni tezkorlikda hal etish imkonini berishi uchun ham ahamiyatlidir.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

ERTANGI KUNGA ISHONCH HISSI

Shuhrat MURODOV,
Qarshi shahridagi "Alp texno servis"
xususiy korxonasi rahbari



Hayotning kutilmagan sinovi ko'p. Hamisha ham biz istagandek bo'laermaydi. Sinovli dunyoning gohida pastu baland yo'llaridan yurishga to'g'ri kelarkan. Shunday kunlarda dalda beradigan kishilari bo'lsa, odamning hayotga muhabbati sira so'nmas ekan.

Bugun mamlakatimizdagi o'zgarishlar, islohotlar qalbimizda ana shunday hayotsevarlikni, ertangi kunga ishonchni mustahkamlamoqda. Xususan, imkoniyatlar sabab korxonamiz faoliyati tubdan yangilandi. Hozir yanada yuksak marralarni ko'zlab, olg'a intilyapmiz.

Prezidentimizning Qashqadaryoga tashrifi quvonchli voqealarga boy bo'ldi. Sog'liqni saqlash, tadbirkorlik, chorvachilik, investorlarni jalb etish kabi bir-biridan muhim jihatlariga e'tibor qaratildi. Lo'nda aytganda, ortga qaytmas islohotlarning yangi davri boshlandi. Ana shu jarayonda biz uchun juda yaxshi chaqirig yangradi. Davlatimiz rahbari qashqadaryoliklar barcha islohotning oldingi safida bo'lishiga ishonch bildirdi. Buni voha ahli nihoyatda ko'tarinki kayfiyatda qabul qildi.

Zavodimiz faoliyati bilan tanishar ekan, Prezidentimiz viloyatda yana bitta xuddi shunday zavod qurish borasida topshiriq berdi. Shu bois, yangi loyiha ishlab chiqishga jiddiy kirishdik. Bundan tashqari, hozir zavodimizga televizor uchun kerakli ko'pgina ehtiyot qismlarni xorijdan olib kelishga majbur bo'lyapmiz. Kelgusida import o'rnini qoplash uchun shu mahsulotlarni zavoddan ishlab chiqarmoqchimiz. Bu boradagi izlanishlarni

boshlab yuborganmiz. Kelgusida kamida 70-80 foiz import mahsulot o'zimizda tayyorlanadi. Natijada mahsulot tan narxi arzonlashadi. Qolaversa, yangi ish o'rinlari ochiladi.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyatini kompleks rivojlantirishning ustuvor vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishda bandlik masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, viloyatda 470 ming odamni band qilish, 150 ming kishini kambag'allikdan chiqarish, Kitob tumani, Qarshi va Shahrisabz shaharlarini ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirish borasida vazifalar berildi. Bunday islohotlar yurtdoshlarimiz hayotida tub o'zgarish yasaydi. Daromad kirib borgan oilada baxt, quvonch hukm suradi. Muhimi, odamlar hayotdan rozi bo'lib yashaydi.

Ha, Qashqadaryo butunlay yangicha qiyofa kasb etmoqda. Bunga yanada ko'p hissa qo'shish uchun imkoniyatlardan oqilona foydalana olsak, bas. Ochig'i, hozir xayolimdian juda ko'p ijobiy o'y o'tiyapti. Betakror tuyg'ularni his qilyapman. Ammo ularni so'z bilan ifodalab bera olmayman. Ehtimol, buni qisqacha qilib, faxr, hayotsevarlik, shukrona, ertangi kunga ishonch va shu yurtga munosib farzand bo'lish tuyg'usining eng yuksak nuqtasi, desak to'g'ri bo'lar.

TUGANMAS QUVVAT MANBAI



Durdona BOYSAIDOVA,
tadbirkor

Ancha yildan beri tadbirkorlik bilan shug'ullanaman. Ilgari asosan, oziq-ovqat mahsulotlari savdosini yo'lga qo'ygandik. Ishimiz ega yaxshi edi. Ammo kutilmagan falokat tufayli bir oyog'imdan ayirilib, ikkinchi guruh nogironi bo'lib qoldim. Endi shu holimcha qolib ketsam kerak deb o'ylagandim. Shukrki, yurtimizdagi ijobiy o'zgarishlar sabab yana ijtimoiy hayotning faol a'zosisga aylandim. Ijtimoiy hayotni milliy agentligi xodimlari ko'magida protez qo'ydirdim. Yana oyog'ga turib, odamlar orasiga qo'shilganimdian o'zimdagi yo'q

mamnun edim. Shundan so'ng yangi yo'nalish bo'yicha ish boshladim. Nogironligi bo'lgan shaxslar tayyorlagan turli mahsulotlar, san'at asarlari, hunarmandchilik buyumlari savdosini yo'lga qo'ydim.

Yakkabog' tumani markazida yangi ochilgan ekobozordan menga alohida joy berildi. Barcha qulaylikka ega, odam gavjum maskan. Bundan juda quvonдим. Yurtimizda barchaga qiziqishi, salohiyatiga qarab keng imkoniyat yaratib berilayotganiga yana bir karra ishonch hosil qildim. Ushbu savdo markazi tumanimiz ahli uchun juda katta qulaylik bo'ldi.

Hozir imkoniyati cheklangan 14 kishi bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygannan. Ularning uyda o'tirib, daromad topishiga yordamim tegyapti. Qo'l mehnati bilan tayyorlagan buyumlarini olib, do'konimda sotaman. Natijada ular ham, o'zim ham mablag' ishlab topish imkoniga egamiz. Ilgari nogironligi bo'lganlarga bunday imkoniyat yo'q edi. Hozir mamlakatimiz tom ma'noda ijtimoiy davlat maqomini mustahkamlab boryapti.

Ushbu o'zgarishlarni ko'rib-kuzatib, oldimga yuksak maqsadlarni reja qilyapman. Tarmog'imizni yanada kengaytirib, iloji boricha o'zim kabi nogironlarni ish bilan ta'minlayman. Buning uchun bizda sharoit ham, shijoat ham yetarlicha topiladi.

YANGI HAYOT NAFASI KEZMOQDA

Timur ABIDOV,
investor



Qashqadaryo o'ziga xos go'zal hudud. Tabiati, mehmondo'stligi boshqa joyda takrorlanmaydi. Vohaga har safar kelganimda o'zgarishlar ro'y berayotgani, yangi hayot nafasini his etib, odamlarning yashash tarzi yaxshilanayotganiga guvoh bo'laman. Ayniqsa, chekka hududlarda ham tibbiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani quvonarli. Bu yurtda inson qadri yuksalib borayotganidan dalolat.

Ilk bor Shahrisabz shahrida klinika ochish borasida hamkorlik taklif etilganida mamnun bo'ldim. Tez buni amalga oshirish harakatiga tushdim. Bilamiz, bu juda qadimiy shahar. Buyuk cohibqironga beshik bo'lgan manzil. Shunday shahar odamlari orasida yurak kasalliklari bo'lmasligi kerak. Bu ishini boshlaganimda nega aynan yurak kasalliklari klinikasi ochishga investitsiya jalb etayotganimga ko'pchilik qiziqdi. Bilasizmi, bundan to'rt yil oldin o'zim infarktni boshdan o'tkazdim. Uni yengish oson bo'lmadi. Yurak — inson uchun eng muhim a'zo. Shu bois, bugun 10 million dollar investitsiya jalb etib, mazkur shifoxonani barpo etdik.

Prezidentimiz Qashqadaryoga tashrifi chog'ida klinika bilan yaqindan tanishdi. Bemorlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yuqori baholadi. Suhbatimiz nihoyatda samimiy o'tdi. Shu jarayonda takliflarini

bildirib, yanada qulaylik yaratish uchun qilinishi lozim bo'lgan ishlar xususida ko'rsatmalar berdi. Qolaversa, mamlakatning 14 ta hududida ham xuddi shunday klinika barpo etish borasida mas'ullarga topshiriq berilgan quvonarli voqea bo'ldi. Demak, boshqa hududlarda ham yurak kasalliklarini erta aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Hozir shifo maskanimizda 4 ta jarrohlik va 6 ta reanimatsiya xonasi mavjud. Bir vaqtning o'zida 4 ta va kuniga o'rta 25 tagacha yuqori texnologiyali kardiojarrohlik amaliyotini o'tkazish imkoniyatiga egamiz. Rossiya, Turkiya va Kuyaytdan malakali shifokorlar kelib ishlaymoqda. Bu O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Biz mana shunday go'zal diyorning mehribon odamlari salomatligi uchun nafimiz tegishidan mamnun bo'lamiz.

“ Yurak — inson uchun eng muhim a'zo. Shu bois, bugun 10 million dollar investitsiya jalb etib, mazkur shifoxonani barpo etdik.

BELNI MAHKAM BOG'LAB ISHLAYOTGANLARGA SAFDOSH BO'LISH SAODATI



Otobek OLIMJONOV,
“Miraki” xalqaro turizm
markazi rahbari

Qashqadaryo tabiatiga o'xshash iqlim boshqa joyda uchramaydi. Misol uchun, qaysidir paytda vohada to'rt faslni kuzatish mumkin. Atrofqa qarasangiz, kirib-berib baland, purviqor qorli tog'larga ko'zingiz tushadi. Mamlakatimizning eng baland cho'qqisi ham aynan shu tumanda joylashgan. Shu bois, vohaning turizm salohiyatiga yuqori baho berib kelinadi. Xususan, Shahrisabz tumanining Miraki qishlog'i doim sayyohlarni jalb etib kelgan.

Tarixga nazar tashlasak, qadimda ham bu hudud o'ziga xos sayyohlik maskani bo'lgan. Miraki "Mir arka" so'zidan olingan bo'lib,

amirlar dam oladigan joy degan ma'noni anglatgan. Bugun bu makon zamonaviy qiyofaga ega bo'lib, sayyohlar uchun eng maqbul joyga aylandi.

Muayyan muddat shunday joydan samarali foydalanar olmadik. Ilgari bu hududda mehmonlar dam olishi uchun yetarli sharoit bo'lmagan. Xizmat ko'rsatish sifati yaxshi emasligi tufayli bu yerga bir kelgan kishi qayta kelmasdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan bugun yirik loyiha amalga oshirildi. Bugun "Miraki" xalqaro turizm markazi sayyohlarni o'ziga jalb etadigan jozibador hududga aylandi. Lekin bu eng yuksak marrani zabt etdik degani emas. Faoliyatini kengaytirish, yanada qulayliklar yaratish imkoniyati bor. Shundan kelib chiqib, Prezidentimiz turistlarni qabul qilish uchun bajarilgan ishlarga baho berdi.

Bunyodkorlik ishlari sabab hudud ajoyib ko'rinishga keldi. Qolaversa, yangi ish o'rinlari ochildi. Odamlar uyidan olisga ketmay, oilasiga daromad olib kiriyapti. Quvonarlisi, loyihalarimiz to'liq ishga tushgach, 2000 ga yaqin kishi ish bilan ta'minlanadi. Bu xalq farovonligi, mamlakat obodligidir.

Davlatimiz rahbari aytganidek, hali Qashqadaryoda qilinadigan ishlar ko'lamini nihoyatda keng. Ana shunday tarixiy jarayonda belni mahkam bog'lab ishga kirishgan insonlar bilan bir safda ekanimiz qalbimizda cheksiz faxr uyg'otadi.



2025-yil 21-iyun, 126-son

YANGI O‘ZBEKISTON



Xalqaro forum oldidan

DAVLAT XIZMATINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA SAMARQAND MULOQOTI

SOHA KELAJAGINI BELGILAB BERUVCHI VOQELIKKA AYLANADI

Asror MUHITDINOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat xizmatini
rivojlantirish agentligi direktori
o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Jadallashish, tezlashmoq zarur

Forumning bosh mavzusi alohida e‘tiborga molik. Samarqanddagi tadbir “2030-yilga qadar besh yil: barqaror kelajak uchun xizmat ko‘rsatish jarayonlarini jadallashtirish” deb nomlangan. Mavzu o‘ziga xos chaqiriq, undov mazmuniga ega: “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish muddatlari poyoniga yetib bormoqda, shuning uchun sohadagi islohotlarni tezlashtirish zarur!”.

2015-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarini 2030-yilgacha amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Mazkur global dastur “Barqaror rivojlanish kun tartibi — 2030” nomli hujjatda aks ettirilgan va 17 maqsadni o‘z ichiga oladi. Bu maqsadlar jahon miqyosida insonlar hayotini yaxshilash, sayyoramizni muhofaza qilish va barcha uchun farovonlikni ta‘minlashga qaratilgan bilan ahamiyatli.

Shu o‘rinda Prezidentimizning BRMga erishishni jadallashtirish bilan bog‘liq xalqaro tashabbusini yodga olmoq o‘rinli. 2022-yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 77-sessiyasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to‘g‘risidagi rezolyutsiya ma‘qullandi. Bu hujjat loyihasi BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan edi. Unda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirish — maqsad, bu jarayonda qonunchilik organlaridan foydalanish — vosita sifatida ko‘rsatilgan edi. 80 dan ortiq mamlakat taklif va tavsiyalari bilan boyitilgan rezolyutsiya bir ovozdan qabul qilindi — Prezidentimizning tashabbusi yuksak xalqaro e‘tirofga sazovor bo‘ldi.

Global muammolarni hal etishga qaratilgan bunday muhim xalqaro huquqiy hujjat BRMga erishish yo‘lidagi salmoqli qadam bo‘ldi. Davlatimiz rahbarining jahon hamjamiyatini bu maqsadlarga erishish yo‘lida tezlashishga undashi, ko‘zlangan marralarga yetish uchun jadallashishga chorlashi Samarqand forumi mavzusiga belgilovchi ta‘sir ko‘rsatgandir ehtimol.

Barqaror rivojlanish maqsadlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi: umumiylik, uyg‘unlik, ustuvorlik

BMTning 2030-yilgacha global kun tartibi barqaror rivojlanishning uchta ustuni — iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni ta‘minlashga xizmat qiladi. BRM globallashtayotgan dunyoda yuzaga kelayotgan muammolarni hamkorlikda bartaraf etishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, har bir maqsad bir qancha vazifa va ko‘rsatkich orqali ifodalangan, har bir davlat esa uni o‘z xususiyatlariga moslashtirgan. Bundan maqsad davlatlar taraqqiyotini belgilab beruvchi hujjatlar vositasida milliy barqaror rivojlanish maqsadlari ro‘yobga erishishdir. Shuning uchun ham turli davlatlarning Barqaror rivojlanish maqsadlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq, bir-birini to‘ldiradi va mustahkamlaydi.

Tabiiyki, O‘zbekistonda ham BRM milliy siyosatga integratsiya qilindi. O‘zbekiston BMT sammitida e‘lon qilingan BRMning milliy darajada bajarilishi bo‘yicha shartlarini qabul qildi. Shunga ko‘ra, 2018 va 2022-yillarda Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi. Bundan tashqari, milliy barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshirilishini nazorat qiluvchi tuzilma tashkil etildi, bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratildi, milliy maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan byudjetlar qabul qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Eng muhimi, jamiyatda barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Global va milliy barqaror rivojlanish maqsadlari o‘rtasida o‘xshashlik mavjud. Bu umumiylik, eng avvalo, “Inson qadri” g‘oyasining o‘zak g‘oyasi ekanida namoyon bo‘ladi. Chindan ham, BRMning tagzaminini inson qadri va uning huquqlarini ta‘minlash

g‘oyasi tashkil etadi. Yangi O‘zbekistonda ham “Inson qadri hamma narsadan ustun” tamoyili rivojlanish paradigmasi sifatida belgilab berilgan. Boshqacha aytganda, O‘zbekistondagi barcha islohotlar pirovardida inson qadri, huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashga xizmat qiladi. Turgan gapki, yurtimizda kechayotgan islohotlar falsafasining “Inson qadri” g‘oyasiga asoslanishi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishimizni osonlashtiradi va tezlatadi.

BMTning 2030-yilgacha global kun tartibi mamlakatimizning strategik hujjatlarida ham aks ettirildi. Barcha strategik taraqqiyot dasturlarida BRMga erishishga yo‘naltirilgan milliy maqsad va vazifalar qamrab olingan. Jumladan, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ham “Global kun tartibi — 2030”ga uyg‘un ekanini ko‘rish mumkin. O‘z navbatida, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad-vazifalar barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘ziga xos “yo‘l xaritasi” vazifasini o‘tamoqda.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanishning milliy maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Tabiiyki, milliy maqsadlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston barqaror rivojlanishning global maqsadlari ro‘yobga xizmat qilmoqda, umumiy maqsadga hissa qo‘shmoqda. Ko‘rinib turibdiki, global va milliy maqsadlar bo‘linmas, o‘zaro bog‘liq hamda bir-birini to‘ldirib turadi. Eng asosiysi, “Global kun tartibi — 2030”dagi maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish barcha davlat



organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifasi sifatida belgilangan.

Aslida, BRMga erishishda davlat xizmati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Birinchidan, davlat xizmatchilari BRMga mos keladigan strategik yo‘nalishlarni belgilash, dasturiy hujjatlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Ikkinchidan, BRMga erishish uchun tegishli normativ-huquqiy hujjatlarini tayyorlash, tasdiqlash va ijrosini ta‘minlash ham ularning zimmasiga yuklatiladi.


Uchinchidan, davlat xizmatchilari BRMning amalga oshirishini ta‘minlovchi boshqaruv tizimlarini yaratadi va ularni muvofiqlashtirishga javobgar bo‘ladi.

To‘rtinchidan, barqaror rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish uchun davlat byudjeti mablag‘lari va investitsiyalarni jalb qilishda davlat xizmatchilari bevosita ishtirok etadi.

Beshinchidan, barqaror rivojlanishning milliy maqsadlariga erishish holatini kuzatish va tahlil qilish uchun davlat organlari ma‘lumot to‘playdi, ular asosida samaradorlik baholalanadi.


Oltinchidan, BRMni ro‘yobga chiqarishga keng jamoatchilikni jalb etish jarayoni davlat xizmati tizimi orqali amalga oshiriladi. Ko‘rinib turibdiki, BRMga erishishda davlat xizmati o‘ziga xos lokomotiv vazifasini o‘taydi, strategik rejalashtirishdan tortib, to‘lira va nazoratgacha bo‘lgan barcha jarayonlarda faol ishtirok etib, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘priklarni vazifasini bajaradi. Demak, samarali va shaffof davlat xizmati barqaror rivojlanish erishishning asosiy shartlaridan biridir.

BMT Davlat xizmati forumi davlat xizmatini samarali tashkil etish, sohaga innovatsiyalarni joriy etish va BRMga erishish yo‘lida davlatlar,



xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillarini birlashtiradigan yirik xalqaro tadbir. Forumning asosiy maqsadi davlat xizmati tizimini tubdan takomillashtirish nazardan, ham inson resurslari vositasida, ham texnologik jihatdan mustahkamlashdir.

Xalqaro tadbir ilk bor 2003-yilda Nyu-Yorkda tashkil etilgan. Shundan so‘ng har yili turli davlatlarda o‘tkazilgan. 2025-yilda forumni o‘tkazish uchun O‘zbekiston tanlangan. Nima



uchun aynan O‘zbekiston? Fikrimizcha, buning bir qator sabablari bor.

Nima uchun O‘zbekiston tanlandi?

Avvalo, mamlakatimizda hozirgi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarida tizimli va manzilli islohotlar kechmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, davlat xizmati transformatsiyasi masalasi BRMga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Shu o‘rinda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillarini asosida tashkil etish masalasi alohida maqsad sifatida belgilanganini ta‘kidlash joiz. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda davlat xizmati tizimidagi o‘zgarishlarga ustuvor darajada ahamiyat beriladi. Insonni qadrlash, odamlarni rozi qilish, xalqqa xizmat qilish davlat xizmatchilarining faoliyat mezonlariga aylangan. Sohadagi o‘zgarishlar natijasida davlat bilan jamiyat o‘rtasidagi jarik yo‘qoldi, fuqaro boshqaruv piramidasi chiqqisidan o‘rin oldi, davlat xizmatida samaradorlik muhim ahamiyat kasb etdi.

Xullas, davlat fuqaroga yuzlandi, xalqning dardini tinglab, muammolariga yechim izlay boshladi. Shu maqsadda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida qariyb 350 turdagi xizmatlar onlayn shaklda ko‘rsatilishi yo‘lga qo‘yildi. Avval “fuqaro-davlat” muloqotida vertikal munosabatlar ustuvorlik qilgan bo‘lsa, endilikda bu muloqotda ochiqlik, shaffoflik va xalqchilik tamoyillari amal qila boshladi. Ayni paytda fuqarolarning davlat idoralarga

virtual murojaat qilish va raqamli xizmatlardan foydalanish ko‘nikmalari karrasiga ortdi.

Keyingi qadam sifatida sohada institutsional o‘zgarish amalga oshirildi — 2019-yilda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga asos solindi. Agentlik kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish vazifasiga mas‘ul organ sifatida O‘zbekiston Prezidenti huzurida faoliyat yuritishi belgilandi. 2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun Davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga yuklatilgan vazifalar to‘laqonli bajarilishida huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qildi.

Agentlikning butun faoliyati meritokratiya g‘oyasi asosiga qurildi. Ya‘ni O‘zbekistonda lavozim egallashda tanish-bilishlar, sovg‘a-salomlar emas, nomzodning bilimi, malakasi, iqtidori, ish samaradorligi birlamchi rol o‘ynaydigan bo‘ldi. Meritokratiyaning afzalligi shundaki, professional kadrlar jamoasi shakllanadi, davlat idoralarda samaradorlik ortadi, korrupsiya kamayadi hamda salohiyatli kadrlarga keng imkoniyatlar beriladi.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda davlat xizmatiga saralash jarayoni ochiq

va shaffof tanlov, adolatli hamda halol raqobat asosiga qurildi. Muhimi, jarayon raqamlashtirildi hamda subyektiv omillar ta‘siridan himoyalandi. Jumladan, Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali — vacancy.args.uz ish boshladi va shu kunga qadar bu tizim doirasidagi tanlovlarda 4 milliondan ortiq da‘vogar-nomzod ishtirok etdi, 205 mingdan ortiq tanlov o‘tkazildi. Natijada davlat xizmati tizimida eng munosiblarni lavozimga tayinlash, xizmatni pillapoyalaridan ko‘tarish va rag‘batlantirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Agentlikda istiqbolli kadrlar bilan ishlashga ham ustuvor darajada e‘tibor berildi — milliy kadrlar xazirasi shakllantirildi. Bu tizim orqali nafaqat muayyan miqdordagi nomzodlar jamlandi, balki ular yangi lavozimlarga maqsadli tayyorlanmoqda. Bunday yondashuv kadrlar siyosatidagi barqarorlik va samaradorlikni kafolatlaydi, boshqaruv kadrlariga ehtiyojni maqsadli qondirishga xizmat qiladi. E‘tiborlisi shundaki, milliy kadrlar xazirasi bilan bog‘liq jarayonlar ham raqamlashtirilib, xazira.args.uz platformasi ishg a tushirilgan.

Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 2024-yilda agentlik huzurida Rahbar kadrlarni baholash markazi ish boshladi. Davlat xizmatchilarining shaxsiy va professional diagnostikasini amalga oshirayotgan ushbu markazda assessment (kompleks baholash jarayoni)dan o‘tgan har bir nomzodning portfoliosi yaratilib, professional rivojlanish trayektoriyasi belgilanadi, shaxsiy rivojlanish rejai ishlab chiqiladi, “o‘sinh nuqtalari” ko‘rsatilib, kuchli jihatlarni rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Davlat xizmatchilarini baholash jarayoni shular bilan cheklanmaydi. Hozirgi kunda kadrlar salohiyatini eng muhim faoliyat ko‘rsatkichlari (KPI — Key Performance Indicators) asosida baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimizning “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo‘jalik birlashmalari faoliyati samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga binoan 2024-yilda milliy reyting tizimi joriy etildi. Davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini elektron baholash platformasi — samaradorlik.uz ishga tushirildi. Natijada davlat xizmatchilarining qanday ishlayotgani “yaxshi-yomon” tarzida emas, aniq raqamlar vositasida o‘lchanadigan bo‘ldi.

Endilikda davlat xizmatchisi vaqt o‘tkazish emas, aniq natija uchun ishlaydi, uning faoliyati tashkilot rivojiga qo‘shgan hissasiga mutanosib ravishda baholalanadi. Bunday yondashuv davlat xizmatchilarining ish sifati, faoliyat samaradorligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsata boshladi.

Davlat xizmatida kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimi joriy etiladi

Nufuzli tadbir arafasida Prezidentimiz “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi.

Farmon bilan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi hamda “El-yurt umidi” jamg‘armasining doimiy hamkorligiga asoslangan davlat xizmatida kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimi joriy etilishi belgilandi. Unga ko‘ra, agentlik buyurtmasiga asosan, davlat xizmatchilarining xorijdagi davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ilmiy-talim muassasalarida amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli stajirovkasi tashkil etiladi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiyalarining gorizontol va vertikal karyeraviy o‘sishi bo‘yicha zarur choralar ko‘riladi.

Davlat xizmatiga ilk bor 1 yilga kontrakt asosida qabul qilish va kelgusi faoliyatining ijobiy natijalariga ko‘ra, uning muddatini uzaytirish, ilk bor qabul qilinganlarni dastlab majburiy qayta tayyorlash kurslariga, keyinchalik har 3 yilda malakasini oshirish, davlat xizmatchilarining zarur bilim va kasbiy ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazib borish belgilandi. Rahbarlikka iqtidorli kadrlarni (davlat xizmatchilari, jamoat tashkilotlari vakillari, tadbirkorlar va vatandoshlar) tanlov asosida jalb etishga qaratilgan “TOP-100” dasturi joriy etilib, tanlov g‘oliblari Milliy kadrlar xazirasiga kiritiladi, ular Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasida o‘qitilishi, tajribali rahbarlarga birlashtirilib, xorijga stajirovkaga yuborilishi hamda moddiy rag‘batlantirilishi ko‘zda tutilmoqda.

Hujjat bilan joriy etilayotgan yangiliklardan biri — bu davlat organlari faolligining milliy reytingi. U kadrlar bilan ishlash, murojaatlar, raqamlashtirish, rahbarlar faoliyati samaradorligi (KPI), strategik maqsadlarga erishganligi, ochiqlik, korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa muhim ko‘rsatkichlar asosida shakllantiriladi. Reyting natijalariga qarab quyi pog‘onadagi davlat idoralaringin ish usullari o‘zgartiriladi, boshqaruv jarayonlari BPR-reinjining qilinadi, rahbarlar faoliyatiga baho beriladi.

Farmonning muhim jihatlardan yana biri, davlat xizmatchilarining davlat ishidagi ko‘p yillik tajribasini rag‘batlantirish uchun malaka darajalarini berish tartibi belgilanganida. Unga ko‘ra, har bir malaka darajasini olish uchun davlat xizmatchisi muayyan lavozimda 2-4 yil ishlashi, malaka oshirganligi to‘g‘risidagi sertifikatga ega bo‘lishi va ish faoliyati ijobiy tavsiflanishi talab etiladi.

Umuman olganda, o‘tgan davr ichida davlat xizmatida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Tizimda xalqchilik ustuvor tamoyilga aylandi, tanlov meritokratiyaga asoslandi, inson resurslari maqsadli rivojlantirildi, ilg‘or xorijiy tajriba o‘zlashtirildi, samaradorlik o‘lchanadigan bo‘ldi, zamonaviy yondashuvlar joriy etildi, soha raqamlashtirildi.

Forum kun tartibi

Forumning har bir kunida muayyan muammoga ustuvorlik beriladi. Jumladan, dastlabki kunida raqamli transformatsiyaga

urg‘u berilsa, kelasi kun sohadagi islohotlarni tezlatish imkoniyatlariga bag‘ishlanadi, oxirgi kunda esa innovatsiyalarni jadallashtirish mavzusi ko‘tariladi.

Turgan gapki, forum minbarlarida davlat xizmatida sun‘iy intellektdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi. Chunki raqamli transformatsiya davlat xizmatida sun‘iy intellektdan foydalanishni taqozo etadi. Ayni paytda sun‘iy intellektdan foydalanish davlat xizmatchilari uchun keng imkoniyatlar ochishi barobarida muayyan xavf-xatarlarni ham keltirib chiqaradi.

Jumladan, davlat xizmatida sun‘iy intellektni qo‘llash faoliyat samaradorligi va tezkorlikni kuchaytiradi. Masalan, doimiy takrorlanadigan vazifalar avtomatlashadi, murojaatlarga tekzor javob berish imkoni paydo bo‘ladi, kadrlarni muayyan algoritmlar asosida xolisona baholash va tanlash uchun sharoit yaratiladi.

Bundan tashqari, sun‘iy intellekt katta ma‘lumotlar (minglab fuqarolarning murojaatlari)ni tezda tahlil qilish va tendensiyalarni aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, chat-botlar orqali fuqaro bilan interaktiv aloqa o‘rnatish va 24/7 xizmat ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Umuman, virtual yordamchilar tufayli xarajatlar hamda vaqt sarfi kamayadi, budjetni tejash imkoni paydo bo‘ladi.

Afsuski, bu chora muayyan salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Avtomatlashtirish natijasida ayrim vazifalar inson ishtirokizis bajariladi, bu esa ish o‘rinlari qisqarishiga olib kelishi mumkin. Sun‘iy intellekt katta hajmdagi shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlashi mumkin, ammo bu ma‘lumotlarning noqonuniy tarqalishi yoki suiste‘mol qilinishi xavfi ham yuqori. Boz ustiga, sun‘iy intellekt tizimlarini yaratish, joriy etish va xizmat ko‘rsatish yuqori xarajatlarni talab qiladi.

O‘z-o‘zidan ayonlashadiki, sun‘iy intellekt davlat xizmati uchun katta imkoniyatlar ehsigini ochadi. Lekin uni samarali va xavfsiz joriy etish uchun bu yo‘nalishda qonunchilik asoslarini ishlab chiqish, kadrlarni qayta tayyorlash hamda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yaratish talab etiladi.

Forumdamuhokamaqilinadiganmasalalardan yana biri davlat sektorida innovatsiyalarni joriy qilish va fikrlashni o‘zgartirish bilan bog‘liq. Bu masala dolzarbligining bir qancha sabablari bor. Avvalo, yangi-yangi chaqiriqlar bilan to‘qnashayotgan davlat xizmatida muammolarni an‘anaviy yondashuvlar bilan hal qilish tobora samarasiz bo‘lib bormoqda. Shuning uchun yangicha fikrlash davlat xizmatchilari uchun zarur ko‘nikmalardan biriga aylanmoqda. Tadbirida “Davlat boshqaruvida innovatsion laboratoriyalarni joriy etish amaliyoti” mavzusining muhokama qilinishi ham bejiz emas.

Yechimi izlanadigan yana bir muammo inklyuziv davlat xizmatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Bunda barcha fuqarolar, ayniqsa, kam ta‘minlangan va himoyaga muhtoj qatlamlar uchun davlat xizmatlaridan teng va adolati foydalanish imkoniyatini yaratishga urg‘u beriladi.

Xulosa

Albatta, hech bir tadbir izsiz qolib ketmaydi. U biror natija beradi, muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi. BMTning Samarqandda o‘tkaziladigan Davlat xizmati forumi ham shunday tadbirlar sirasiga kiradi. Forum dunyoning yetuk ekspertlariga davlat xizmatini rivojlantirish yuzasidan muloqot qilish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Tadbirida istisnosiz barcha uchun muhim davlat xizmatlaridan foydalanishni ta‘minlash strategiyalari muhokama qilindi va raqamli boshqaruvning muvaffaqiyatli modellari namoyish etiladi.

Bu oddiy muloqot emas, dunyoda davlat xizmatlari ko‘rsatish kelajagini belgilab beruvchi voqeilik bo‘ladi. Dasturga muvofiq, forumda Samarqand deklaratsiyasi imzolandi. Hujjatda davlat xizmati tizimidagi islohotlar sur‘ati va sifatiga belgilovchi ta‘sir ko‘rsatadigan tashabbuslar aks ettirildi. Tabiiyki, bu sohadagi transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish, resurslarni tejash va oxir-oqibat fuqarolarning davlatga ishonchi ortishiga xizmat qiladi.

Ishonchim komilki, BMTning Samarqandda o‘tkaziladigan Davlat xizmati forumi katta samara beradi — sohadagi islohotlarning muhim drayveriga aylanadi, jadal va tizimli o‘zgarishlarga turki bo‘ladi hamda bashariyatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishini jadallashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

PARKENTNING ZAMONAVIY QIYOFASI

QANDAY BO'LADI?

TURIZM AVVALDAN PARKENTNING DRAYVER YO'NALISHLARIDAN BO'LGAN. ENDI DAM OLISH MASKANLARI VA XIZMAT KO'RSATISHNI KO'PAYTIRISH ORQALI KELADIGAN DAROMAD BIR NECHA BAROBAR ORTADI. YUQORIDAGI LOYIHALAR QURILISHI SHU TARZDA DAVOM ETSA, YAQIN YILLARDA PARKENT TUMANINI TANIB BO'LMAYDI, O'ZIGA XOS ZAMONAVIY TURIZM SHAHARCHASIGA AYLANADI.

BIR YILDA 2 MING SAYYOHNI QABUL QILAYOTGAN MEHMON UYI

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yil Parkent tumaniga 1 millionga yaqin sayyoh kelgan. Shundan 240 mingi xorijlik. Bir necha yildan buyon o'tkazilishi an'anaga aylangan "Uzum sayli" sayyohlar e'tiborini yanada tortmoqda. Atay shu tadbir uchun keluvchilar ham bor. O'tgan yil sayilga 400 mingga yaqin mehmon kelgan. Bu yil ko'rsatkichni 500 mingdan oshirish maqsad qilinyapti. Avgust oyida o'tadigan "Uzum sayli"ga tayyorgarlik boshlab yuborilgan. Mezbunlar bizni ham alohida taklif qildi.

Parkentliklar o'zi shunday — mehmondo'st. Bu yerda 180 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Asosiy daromadi chorvachilik, dehqonchilikdan. Keyingi yillarda esa turizm yo'nalishi yaxshigina daromad manbaiga aylanib bormoqda. Bu hududda yangi va zamonaviy sayyohlik maskanlari barpo etilayotgani, mehmon uylari tashkil etish uchun sharoitlar yaratib berilayotgani bilan bog'liq.

Ayni paytda tumanda 100 ga yaqin oilaviy mehmon uyi ochildigan. Davlatimiz rahbari Kumushkon mahallasidagi "Sayyoh — 2000" deb nomlangan mehmon uyida bo'lib, bunday loyihalarni boshqa so'lim maskanlarda ham tashkil etish kerakligini ta'kidladi.

Uy hovlisi soy bo'yiga qaragan. 48 o'ringa mo'ljallangan xonalar milliy uslubda, shinam qilib jihozlangan. Birgina shu xonadonning o'zi yiliga 2 mingdan ziyod sayyohga xizmat ko'rsatadi. Mehmon uyi egasi Olim aka Yusupov xonadonida Prezidentimiz mehmon bo'lgani haqida hayajon va faxr bilan gapirdi.

Keyingi yillarda aholimiz turizmning eng daromadli yo'nalishlardan biri ekanini tushunib yetdi. To'g'ri, bizda oldindan sayyohlar uchun turli xizmatlar tashkil qilingan, ammo bu tor doirada bo'lgan. O'zimiz ham oilaviy mehmon uyini 2002-yilda ochganmiz. Boshlanishiga 16 o'rinni kichik kottej ishlagan. Ya'ni ko'pchilik buni kichik hajmda tashkil qilib, ish yuritib kelgan.

2018-yildan keyin yurtimizda turizmga e'tibor kuchaydi. Mahalliy hokimlik vakillari bizni chaqirib, ishni rivojlantirish uchun qanday yordam kerakligini so'radi. Ishlayman degan odam bu imkoniyatlardan, albatta, foydalanadi. Hisoblab ko'rsam, oxirgi yetti yilda bankdan 3 marta yirik miqdorda kredit olibman. Shu mablag'lar hisobidan mehmon uyidagi o'rinlar sonini 48 taga yetkazdik, sayyohlar uchun yangi xizmatlar joriy qildik.

Tadbirkor uchun erkin ishlashga sharoit bo'lsa, u rivojlanaveradi. Avvallari qiyinchiliklar bo'lardi, tekshiruvlarning keti uzilmasdi. Mana, 2018-yildan keyin hali biror marta tekshirish kelmadi xonadonimizga. Tadbirkorning faoliyatiga xalal beradigan organlar yo'q, aksincha, yordam berayotgan davlat tashkilotlari bor. Soliqlarni vaqtida to'lab, halol ishlagan biznes egasiga birov xalal bermaydi. Tadbirkorlik uchun imkoniyatlar ham ko'p, odamlar shulardan foydalanyapti. Kumushkonda mehmon uylari sanoqligina bo'lardi. Hozir o'nlab shunday uylar bor.

Mehmon uyimizda asosan, oilaviy ishlaymiz. Mavsumda qo'shimcha 3-4 kishini ish bilan ta'minlaymiz. Qishlog'imizda yana bir katta loyihani boshlaganmiz. Kumushkondagi tog'ning yuqori qismida qiymati 12 milliard so'mlik loyiha amalga oshirilayapti. Kuz oylarigacha 72 o'rinni 6 ta ikki qavatli, 9 ta kichik kottejni ishga tushirishni rejalashtirganmiz. Loyihaning birinchi bosqichida 25 kishi, keyinroq 50 kishi ish bilan ta'minlanadi.

PARKENTGA ELEKTRLASHTIRILGAN TEMIR YO'L BORADI

Qoq tush payti. "Parkentsoy" massivining qator qurilgan ko'p qavatli uylari bo'ylab yurib boryapmiz. Oyog'imiz ostidagi asfalt quyoshda qizib turibdi. O'tib ham tikka ko'tarilgan. Shu vaqtda poytaxtda 40 darajaga yaqin issiq bo'lsa kerak. Ammo bizga issiq unchalik bilinmayapti. Parkentning salqin shabadosi bahor havosidek mayin. Shundoqqina ko'rinib turgan tog'larga qarab sokinlikdan huzur qilarkansan, beixtiyor tinch yurtda, bunyodkorliklar ichida yashayotganingga shukr qilasan kishi.

Avvallari Parkent deganda uzumzorlar, odamlari bog'dorchilik bilan shug'ullanadigan, bozorlarni sarxil mevalar bilan to'ldirib beradigan hudud ko'z oldimizga kelardi. Bugun bu manziling infratuzilmasi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, eng muhimi, odamlar hayot tarzi, kayfiyati o'zgargan. Turizm ortidan tadbirkorlik rivojlanaypti. Zamonaviy bog'lar, mevani qayta ishlash korxonalari paydo bo'lyapti. Tub aholi hududdagi jadal o'zgarishlar bilan birga yashayapti, rivojlanaypti.

Mahmud TOIR, O'zbekiston xalq shoiri, senator:

— Parkentning mehnatkash xalqi azaldan qadoq qo'liga, ketmoniga, o'rog'iga, tokqaychisiga suyanib, har bitta nihol bilan tillasha olgan va rizq-nasibasini ona yerdan topgan. Tayyor suv bo'lsa, bog'lar barpo etish nisbatan oson. Ammo tumanda uzoq yillar davomida suv chiqmaydigan, lalmi yerlarda g'alla ekilgan, uzumzorlar tashkil qilingan, dumyoga dong'i ketgan, mazali ta'mi tilni yoradigan mevalar yetishtirilgan. Bu yerdan buyuk olimlar, ijodkorlar ham chiqqan. Bugun ularning izdoshlari sifatida bilimli, iqtidorli yoshlar kamol topyapti. Tumanning hozirgi qiyofasi uning go'zal tabiatiga xos tarzda yanada taraqqiy etyaptiki, Parkent farzandi, bir ijodkor sifatida ko'nglim tog'dek ko'tariladi. Birgina qurib bitkazilgan yangi ko'priki olaylik. Avval shu yer eng tirband joy edi, atrofdagi odamlar yurolmasdi. Hozir uzunligi 56 metrli zamonaviy ko'priki foydalanishga topshirilgan. Parkentsoy atrofidagi bunyodkorlik ishlarini qarang. Tumanga elektrlashtirilgan temir yo'l kelishi bu yerliklarning tushiga kirmagan. "Baytqo'rg'on — Parkent" elektrlashtirilgan temir yo'li katta loyihalardan biri. Bu yo'nalish foydalanishga topshirilgach, Parkentdan poytaxtga borish, tumanning xushmanzara



go'shalariga sayohatga kelish osonlashadi. Bu hududda nafaqat turizmni, balki tadbirkorlikni ham rivojlantiradi. Bir yil oldin "Parkentsoy" turar joy majmuasi bo'yida 125 ta ko'p qavatli uy tushadi, deyilganida ishonmaganmiz. Mana, o'sha uylarning 23 tasi qatorlashib qad rostlab turibdi. Sotuv bo'limiga kirsangiz, bankirlarimiz aholiga "Uy xarid qilish uchun imtiyozli ipoteka krediti beramiz", deyapti. Kam ta'minlangan, yosh oilalarga subsidiya berish imkoniyati yaratilgan. Uylarning pastki qismida savdo do'konlari, aholiga xizmat ko'rsatish majmualari ochildi, ularning bari ishga tushsa, yuzlab odam ish bilan ta'minlanadi.



Turar joy maskani atrofiga maktab, bog'cha, bolalar maydonchalari, 10 maktarl park, sayilgoh va veloyol'aklar barpo qilinaypti. Aholi uchun xushmanzara maskan yaratiladi, atrofga ilk nihollar ham qadalgan. Odamlar so'lim, zamonaviy, shinam uylarda istiqomat qiladi.

Tumandagi yangi loyihalar kishini hayratga soladi. Tog'lar cho'qqisida zamonaviy dam olish maskanlari qad rostlaypti. Davlatimiz rahbari yonida yurib, birgalikda Oltinbel cho'qqisiga chiqdik. Xushmanzara tog' bag'ridagi 3 gektar joyda 188 o'rinni 2 ta mehmonxona, kapsula shaklidagi uylar, restoran barpo etilgan. Ana shu tog'larda tog'-chang'i kurorti qurish loyihasi ham rejalashtirilgan. Umuman, Parkent bo'ylab o'nlab zamonaviy turizm maskani qurilyapti. Ularga istalgan xorijlikni olib kelib, ko'ksimizni tog' qilib ko'rsatamiz.

Bugun shukr qilishimiz uchun hamma narsa bor. Asosiyti, yurtimizda tinchlik hukmron. Tinchlikka hech narsa yetmaydi, ayniqsa, hozirgi notinch zamonda buni chuqurroq his qilamiz. Xalqimiz o'zi istaganidek yashashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mehnatdan qochmagan, halollikni dastak qilgan odam oldiga qo'ygan barcha maqsadlariga erishyapti.

Olim YUSUPOV, "Sayyoh — 2000" oilaviy mehmon uyi rahbari:

— Davlatimiz rahbari bilan suhbatlashib, to'g'ri yo'lda ketayotganimizni his qildim. Tadbirkor biror ish boshlashi mumkin, ammo uning rivojlanib borishi uchun qo'llab-quvvatlov kerak. Prezidentimiz bizga ana shu imkoniyat va sharoitlarni yaratib beryapti. E'tibordan yanada rivojlanishga kuch paydo bo'ldi, ortimda Davlat rahbari turganini his qildim. Barchasi uchun ularga rahmat aytishni istab, hech aytoilmadim. Oxiri, tashqariga chiqqanda aytdim.

Uchrashuvdan keyin tuni bilan yangi rejalar tuzib chiqdim. Tog' turizmini rivojlantirishni maqsad qilganman. Kumushkonning tabiiy



salohiyatidan oqilona foydalanishimiz kerak. Xorijliklarda toqqa chiqishga qiziqish katta ekanini kuzataman. Buning piyoda, otda, avtomobilda harakatlanish kabi bir qancha yo'nalishlarini tashkil qilish haqida o'ylayman.

BIR DONA GILOSI HOVUCHNI TO'LDIRADIGAN BOG'

Parkent yo'llari tepaliklardan iborat. Balandlikka chiqib borganing sari tog'lar cho'qqisini zabt etayotgandek bo'lasan. Yaqinda asfaltlangan yo'l bo'ylab tepalikka qarab yurdik. Atrof shunchalar go'zalligidan mashina yurishga bir oz qiyalayotgani ham bilinmadi. Balki haydovchi shunchaki ehtiyotkorroq harakatlanayotgandir. Har holda tepalikka chiqish oson emas.

O'sha tepalikda "Meridian Tempo" korxonasiga qarashli kattagina intensiv bog' bor. Atrofi o'ralgan 54 gektar maydonda gilos, olma, nok va malinaning eksportbop navlari ekilgan. Yana ko'chatlar mahalliy emas, Fransiya va Ispaniyadan keltirilgan. Oldimizga qo'yilgan gilosi ko'rishim bilan "Bu qanday nav, buncha katta bo'lmasa bu gilos", degan savolni berganimdayoq odatdagi nav emasligini tushungandim. Mevaning mazasini-ku aytmasa ham bo'ladi. Bir og'izga solsangiz, qayta-qayta yeb ko'ringiz kelaveradi. Shirasi juda baland, ammo ta'bingiz tortaveradi.

Tepalikda joylashgan bu bog'da barcha ishlar zamonaviy texnologiyalar asosida yo'lga qo'yilgan. To'liq tomchilatib sug'orish

joriy etilgan, daraxtlar o'zini o'zi changlatish xususiyatiga ega, bog'da hatto quyosh panellari ham o'rnatilgan. Mevalar oliy nav bo'lib, narxi ham sifatiga yarasha. Bundan keladigan daromad boshqa an'anaviy o'simliklarga nisbatan bir necha barobar yuqori. Davlatimiz rahbari intensiv bog'da bo'lganida, mutasaddilarga bu usulni ommalashtirish, mevalarni parvarishlash va qadoqlash bo'yicha chet el tajribasini joriy etish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Bog'ni tepadan tomosha qilishning zavqini ilk bor his qildim. Zina orqali chiqiladigan

Ana shunaqa gaplar. Bugun Parkent tumani biz bilganimiz bir nechta dam olish maskanidangina iborat hudud emas. Endi u zamonaviy turizm manzili, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanayotgan tuman, aholi farovonligi oshib borayotgan hudud, odamlari tadbirkorga aylanib, yangicha hayot nafasi sezilayotgan taraqqiyot maskaniga aylangan. Yo'lingiz tushsa, siz ham Parkent tomonlarga, albatta, borib ko'ring.



Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



BARCHA FANLAR ASOSI

MAMLAKATIMIZ TA'LIM TIZIMIDA FINLYANDIYA TAJRIBASI QO'LLANISHI QANCHALIK AHAMIYATGA EGA?

Aksariyat yoshlar matematikani quruq formula yoki amallarni yodlashdan iborat deb biladi. Darsliklardagi nazariy bilimlar va amaliy mashqlar ko'pincha o'quvchining kognitiv jarayonini, xususan, matematik tafakkurni shakllantirishdagi asosiy rolini yetarlicha hisobga olmaydi. Natijada o'quvchilarning bu boradagi tushunchalarni o'zlashtirish samaradorligi pasayadi, ularda mantiqiy bog'lanishlar shakllanmaydi. Bu holat kelajakda murakkab matematik masalalarni yechishda jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi.



Shavkat SHARIPOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

2025-yil aprelida qator mutaxassislar umumta'lim maktablari o'qituvchilari o'rtasida o'tkazgan anonim so'rovnomana natijasiga ko'ra, o'quvchilarning 30-35 foizi past o'zlashtiruvchi ekanini ma'lum bo'ldi. Tadqiqotdan maqsad matematik tafakkurni rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribani, xususan, Finlyandiya ta'lim tizimi misolida tahlil qilish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish edi.

Bu misoldan o'quvchilarda matematik tafakkur shakllanmagani ko'rinadi. Vaholanki, matematika barcha fanlarga asosdir. Matematika bo'yicha o'quvchilarning bu ko'rsatkichi keyinchalik jiddiy muammolarga sabab bo'lish ehtimoli katta. Demak, masalaga yanada jiddiy e'tibor qaratish talab etiladi.



qo'llanishi va qanday shakllanganini anglab yetishi muhim, degani.

Ushbu mamlakat ta'limida muammoli va loyihaga asoslangan o'qitish usullaridan keng foydalaniladi. Bu yondashuvlar o'quvchilarga matematik bilimlarni real hayotiy vaziyatdagi muammolarni hal qilish orqali amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Finlyandiya

O'qituvchilar har bir o'quvchiga individual yondashadi. O'yin shaklidagi mashg'ulotlar va interfaol vositalardan foydalanish matematikaning yanada qiziqarli hamda tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Finlyandiya inklyuziv ta'limga ham juda katta



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



maktablarida 7 yoshgacha matematika rasman o'qitilmaydi, ko'proq loyiha asosidagi ishlar orqali asosiy tushunchalar egallanadi. Bu bajarib o'rganish" tamoyiliga asoslanib, o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi keng qo'llanishi haqida VDU va HELDA (University of Helsinki) tomonidan chop etilgan ishlarda ma'lumot berilgan. Bunda matematika boshqa fanlar, masalan, fizika, san'at yoki musiqa bilan bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, matematikaga oid termin yoki tushunchalarni boshqa umumta'lim fanlarida ham uchratish mumkin. Bu esa o'quvchilarga bilimlarning o'zaro bog'liqligini chuqurroq anglash va matematikani yanada keng tasavvur etish hamda o'rganish imkonini beradi.

"TechClass" saytida keltirilishicha, Finlyandiya ta'limida uy vazifalari minimal darajada berilishi va mustaqil fikrlashga ko'proq e'tibor qaratilishi — asosiy tamoyil. Uy vazifalari qisqa va mazmunli bo'lib, o'quvchilarga darsdan tashqari vaqtini erkin tadqiqot yoki ijodiy faoliyatga bag'ishlash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, o'quvchining ijodkorligi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Ayni paytda asabiylashish (stress) darajasini pasaytiradi.

Maktablarda ta'lim va texnologiya to'liq integratsiya qilinadi. Yoshlar tadqiqot uchun planshetlardan, yozish uchun noutbuklardan va hamkorlikdagi ishlar uchun ilovalardan foydalanadi. Lekin bu shunchaki ekranga qarab o'tirish, degani emas.

e'tibor qaratilgan. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va malakasi yuqori darajada. Barcha o'qituvchi magistr darajasiga ega bo'lishi shart. Ularning tayyorgarligi amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, nazariya va amaliyot o'rtasidagi integratsiyani mustahkamlaydi.

“Matematik o'yin” madaniyatini shakllantirish

Finlyandiya maktablarida o'quvchilarning o'yin orqali o'rganishiga katta e'tibor beriladi. Bizda esa matematika ko'pincha quruq fan sifatida qabul qilinadi. O'zbekiston maktablarida, ayniqsa, boshlang'ich va o'rta sinflarda matematik o'yinlar, mantiqiy boshqotirma va musobaqalarni dars jarayoniga muntazam kiritish kerak. Mazkur o'yin faqat darsdan tashqari mashg'ulot bo'lmay, balki darsning ajralmas qismi bo'lishi lozim. Bu orqali bolalarda matematikaga qiziqish uyg'onadi. Ular o'zi anglamagan holda matematik tafakkurini rivojlantirib oladi.

Yuqorida o'quvchilarga ko'proq erkinlik berish va uy vazifasini kamaytirish haqida fikr yuritdik. Bu sh vaqtini darsdagi erkinlikni matematik o'yin orqali mazmunli to'ldirish maqsadga muvofiq. Bu metod nafaqat stressni kamaytiradi, balki bilimni mustahkamlaydi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Hikoya tuzish

Finlyandiya fanlararo integratsiya muhim. Matematikani faqat raqam va formulalar

“O'ZBEKISTON
TA'LIM TIZIMI
FINLYANDIYA TAJRIBASINI
O'RGANISH BORASIDA
KATTA IMKONIYATGA EGA.
AMMO BU JARAYON SHUNCHAKI
NUSXA KO'CHIRISH EMAS,
BALKI CHUQUR TAHLIL,
MOSLASHUVCHANLIK VA
MILLIY O'ZIGA XOSLIKNI
INOBATGA OLOSHNI
TALAB ETADI.”

tizimi sifatida o'rgatish o'rni uning tarixiy rivojlanishi, real hayotda qo'llanishi va olimlar hikoyalarni darslarga kiritish kerak. Har bir matematik tushuncha yoki qoida ortida qandaydir hikoya mavjudligini ko'rsatish, masalan, Fibonachchi ketma-ketligining tabiatda uchrashi, Pifagor teoremasi qanday paydo bo'lgani, shuningdek, matematikani san'at, musiqa yoki arxitektura bilan bog'lash orqali o'quvchi ishtiyoqini oshirish mumkin.

“Xato qilish — yangilikni o'rganish imkoniyati” tamoyili

O'zbekiston ta'lim tizimida xato qilish ko'pincha salbiy baholanadi. Matematika darslarida o'quvchilarning xato qilishdan qo'rqmasligi uchun sharoit yaratish lozim. Xatolarni muhokama qilish, ulardan saboq chiqarish va o'rganish jarayonining bir qismi sifatida qabul qilish kerak. O'qituvchi o'quvchining xatosini to'g'ridan to'g'ri tuzatish o'rni xato qayerda ekanini topishga undashi, ya'ni induktiv yondashuvni qo'llashi kerak.

“Matematik laboratoriya” tushunchasi

Finlyandiya ta'limida amaliyotga katta e'tibor beriladi. Matematika darslarini nazariy jihatdan o'rgatishdan tashqari, maktablarda “matematik laboratoriyalar” yoki “amaliy matematika xonalari”ni tashkil etish kerak. Bu yerda o'quvchilar turli matematik modellar,

geometrik shakllar, o'lchov asboblari va boshqa amaliy vositalar yordamida matematik tushunchalarni tajriba qilishi mumkin. Oddiy g'ishtdan inshoot qurish orqali geometrik hisob-kitobni o'rganish, katta idishni suvga to'ldirib, hajmini o'lchab ko'rish, yugurish yoki velosiped boshqarish natijasida tezlik o'zgarishi, masofani topish, savdo ishlarini bajarib, foydani foizda hisoblash, dasturlash orqali matematik funksiyalarni vizuallashtirish kabi ishlar shular jumlasidan.

Finlyandiya maktablarida o'quv yuklamasi bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Boshlang'ich sinflarda (1-2-sinf) haftalik dars soatlari nisbatan oz — eng kamida 19 soat. Bu esa bolalarning o'yin va ijodiy rivojlanishiga ko'proq vaqt ajratish imkonini beradi. Ammo yuqori sinflarga (9-sinf) o'tganda bu ko'rsatkich 30 soatgacha yetadi. Umumiy hisobda to'qqiz yillik maktab davomida haftalik yuklama 222 soat bo'ladi. Solishtirsak, O'zbekistonda bu ko'rsatkich ancha yuqori — 254 soat. Bu juda qiziqarli va chuqur tahlil talab qiladigan ma'lumot. Ya'ni Finlyandiyaning kam dars soatlari bilan yuqori natijaga erishishi, o'quv yuklamasi miqdoridan ko'ra, sifat va samaradorlikka urg'u berish muhimligini ko'rsatadi.

Dars soati ko'pligi ba'zan o'quvchilarning o'qishdan zerikishiga olib keladi. Matematik tafakkurni rivojlantirish, masalan, formulalarni yodlatishdan ko'ra, amaliy masalalar yechish, mantiqiy o'yinlar va loyiha ishlariga ko'proq vaqt ajratish samarali bo'lishi mumkin. O'quvchiga mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va bilimlarni amalda qo'llashga yetarli vaqt berilishi kerak.

O'zbekiston ta'lim tizimi Finlyandiya tajribasini o'rganish borasida katta imkoniyatga ega. Ammo bu jarayon shunchaki nuxta ko'chirish emas, balki chuqur tahlil, moslashuvchanlik va milliy o'ziga xoslikni inobatga olishni talab etadi.

Aslida, Finlyandiya ta'lim tizimi yutuqlari va o'qitish usullari O'zbekistonda allaqachondan buyon mavjud. Faqat ular ko'pincha o'quv markazlari, xususiy maktablar, repetitorlik kurslarida qo'llanmoqda. Buni markazlarda ta'lim olganlarning aksariyati, ya'ni 90 foizdan ortig'ining birinchi urinishdayoq oliy ta'limga qabul qilinishidan kam o'rish mumkin. Bu esa “Nega 11 yil maktabda o'qigan o'quvchi oliy ta'limga kira olmaydi-yu, ikki yil repetitorga borganlar kiradi?” degan savolga javob bo'ladi. Repetitorlikdagi samaradorlik Finlyandiya qo'llanadigan o'qitish usullariga o'xshashligidir.

Repetitorga borgan o'quvchilarning bilim darajasi nisbatan sifatli bo'lishiga yetarli sabablar bor. Jumladan, repetitor mavzuni qachon va qanday o'qitishni biladi. Chunki u dars va o'quv dasturini o'z xohishiga ko'ra rejalashtiradi. O'quvchiga individual yondashadi. Bolalar bilimiga qarab guruhlariga ajratiladi. O'quvchilar darsda nishabni erkin o'tiradi. Dars o'yin shaklida o'tiladi. Multimedia vositalaridan unumli foydalaniladi. Ota-onalar bilan yaxshi hamkorlik o'rnatiladi.

Agar eng yaxshi repetitorlar maktablarga jalb qilinsa, sinflardagi o'quvchilar soni kamaytirilsa, shuningdek, maktab o'qituvchilariga sal bo'lsa-da, erkinlik berilsa, ortiqcha hujjatbozliklar bekor qilinsa va muallimlar moliyaviy qo'llab-quvvatlansa, katta natijalarga erishish mumkin. Repetitorlar o'quv markazlarida olgan oyilgini maktabda ham olsa, mamnuniyat bilan dars o'tishga tayyor.

To'g'ri, hozir maktab o'qituvchilari ancha ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlanmoqda. Masalan, milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish, til bilish, fan olimpiadalarida o'quvchisi g'olib bo'lsa, rag'batlantirish kabilar bor. Ammo hamma o'qituvchi ham bunday imkoniyatga ega emas. Fanlardan yaxshi bilim va kuchli o'qitish metodiklarga ega o'qituvchilar ancha. Bunday muallimlarning muayyan qismi xususiy maktab va o'quv markazlarida faoliyat yuritadi. U muassasalarda esa o'quvchi soni kam. Demak, ta'limni rivojlantirish ham shunga yarasha bo'ladi.

o'quv markazlari”da 2022-2024-yillarda 60 mingdan ortiq xotin-qiz zamonaviy kasb-hunar, axborot texnologiyalari, tikuvchilik, tibbiyot va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida tahsil olgan. Ularning asosiy qismi ish bilan ta'minlanib, biznesini yo'lga qo'ygan.

Xotin-qizlar ta'limiga oid jihatlardan yana biri qishloq joylardagi ayollarning ilm olishiga ko'maklashishdir. Ilgari o'qishga ruxsat bermagan, erta turmushga chiqarishga moyil bo'lgan ijtimoiy stereotiplar asta-sekin bartaraf etilmoqda. Bugun aynan qishloq joylardan chiqqan ko'plab qizlar milliy va xalqaro grantlar asosida oliy ta'limga qabul qilinmoqda. Masalan, Farg'ona viloyatining Rishton tumanida istiqomat qiluvchi Zilola Jo'rayeva 2022-yilda “Ayollar daftari” orqali imtihonga tayyorgarlik ko'rgan va O'zMUga davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan. Hozir u jurnalistika yo'nalishida tahsil olmoqda.

Ayol faqat oliy mazmuniga emas, balki jamiyatda madaniyat, ma'rifat va mehr-oqibat timsoli hamdir. Shuning uchun xotin-qizlarning ta'lim, ilm-fan, so'z erkinligi va ijtimoiy faollikka intilishini qadrlash kelajak avlod tarbiyasi poydevori.

Bu boradagi davlat siyosatining tizimli va izchil amalga oshirilayotgani, xotin-qizlarga nisbatan hurmat va e'tiborning oshgani mamlakatimizning ma'naviy qiyofasini namoyon etadi. Shunday ekan, har bir oila, har bir mahalla, har bir ta'lim muassasasi ayollar ta'limi mas'uliyatini yanada yaxshiroq his etishi ayni muddao. Chunki bilimli ayol — bu baxtli oila, barkamol farzand va kuchli jamiyat asosi.



Mulohaza

Lazzat O'TKIROVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti talabasi

Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga e'tibor bugun davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Ayniqsa, ularning ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi, ilmiy va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar tahsinga loyiq. Zotan, ayolning o'qimishli bo'lishi oila, jamiyat va davlat taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Ma'rifatli inson dunyoqarashi va imkoniyat doirasi keng insondir. Ayol uchun esa ilm juda zarur. Chunki u kelajak avlodni tarbiyalaydi. Ishlasa — bevosita, ishlamasa — bilvosita, ya'ni farzandlar tarbiyasi orqali jamiyatga foyda keltiradi.

Ayol taqdir taqozosi bilan hayotning turfa zarbalariga duchor bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda o'rganagan hunariyu olgan bilimi unga yo'lchiroq bo'ladi. Xotin-qizlarni ta'limga faol jalb etish davlatning ijtimoiy yukini ham birmuncha yengillashtiradi. Chunki bilimli

“

Xotin-qizlarning ta'lim olishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan farmon va qarorlar, davlat dasturlari bu boradagi e'tiborning amaliy ifodasidir. Bugun ayollar faqat an'anaviy sohalarida emas, balki siyosat, texnologiya, fan, diplomatiya, jurnalistika, tadbirkorlik kabi yo'nalishlarda ham katta yutuqlarga erishmoqda. Buning asosida esa faqat va faqat ta'lim va e'tibor yotibdi.

BILIMLI AYOL BAXTLI OILA TAYANCHI, KUCHLI JAMIYAT KO'MAKCHISIDIR

ayol ijtimoiy to'lovlariga ko'z tikib o'tirmaydi, farzandlarining kelajagi uchun bor kuchi bilan mustaqil harakat qiladi.

Bundan tashqari, ma'rifatli ayol jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi. Aynan u bolalarni tarbiyalaydi va ongi, dunyoqarashi, bilimni shakllantiradi. Qiz bola oliy ma'lumot egasi bo'lsa, yuksak bilim va salohiyat sohibasiga aylansa, o'zlashtirganlarini kelajakda farzandlariga ham singdiradi. Har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga mas'uliyat bilan yondashadi. Chunki ayolga tabiatan naslni davom ettirish va millatning qadrini ko'taradigan farzandlarni tarbiyalashdek oliy vazifa yuklangan.

Mamlakatimizda ayollar huquqlari, xususan, ta'lim olish huquqi mustahkam qonuniy asosda himoya qilinmoqda. Xotin-qizlarning ta'lim olishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan farmon va qarorlar, davlat dasturlari bu boradagi e'tiborning amaliy ifodasidir. Bugun ayollar faqat an'anaviy sohalarida emas, balki siyosat, texnologiya, fan, diplomatiya, jurnalistika, tadbirkorlik kabi yo'nalishlarda ham katta yutuqlarga erishmoqda. Buning asosida esa faqat va faqat ta'lim va e'tibor yotibdi.

Bilimli ayol oila a'zolarini ham o'qishga, o'zini rivojlantirishga undaydi. U farzandlarining birinchi ustoziga, jamiyatdagi muhim islohotlar harakatlantiruvchisiga



aylanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda yurtimizdagi oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning 47 foizdan ortig'ini aynan xotin-qizlar tashkil etadi. Bu

ayollarning ta'limga intilishi yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, Qoraqalpoq'iston Respublikasi, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida tashkil etilgan “Ayollar

6

2025-yil 21-iyun, 126-son

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz

Albatta o‘qing!

Insonning mangu dardi

(“So‘z latofati” kitobidan)

Navoiy ijodi shu qadar poyonsiz tuyg‘ular olamiki, undan inson hissiyotining barcha jilolarini topish mumkin. Sevgi, sog‘inchi, rashk, umid, ayriliq uqubati, visol shodligi, yurt mehri, fidolik, jasorat... bu sanoqni cheksizlik qadar davom ettirish mumkin. Tasavvurimda inson ruhiyatining biror holati yo‘qki, Navoiyda uning ifodasi uchun bir bayt topilmasin. “Xazoyin ul maoniy” faqat ma’nolar xazinasi emas, insoniy tuyg‘ular qomusi, hissiyotning bepoyon olami hamdir.

Hazratning bir g‘azali “Vahki, umrim barcha zoye bo‘ldi el komi bila” deb boshlanadi. She‘r boshdan-oyoq ozodlik tuyg‘usi haqida. G‘azalning birinchi satriyoq kishini cheksiz xayollarga g‘arq qiladi:

Vahki, umrim barcha zoye bo‘ldi el komi bila,
Bodai nob o‘rnida xunoba oshomi bila.
Naqadar buyuk iztirob bor bu so‘zlarda. Birgina shoirming emas,
bor insoniyatning, hamma zamon va makonlarning dard-u alami bor. Kom — istak, xohish demak. Komronlik o‘z istagiga ko‘ra yashamoq, ya‘ni ozod bo‘lmoqdir. Shoir taassuf bilan men o‘z istagimga ko‘ra yashamadim, boshqalarning ra‘yi bilan, zamonaga zayliga bo‘yin egib kun kechirdim, hech qachon ixtiyorim o‘zimda bo‘lmadi demoqda. Shu bois, ichganim boda emas, qonli yoshlarim bo‘ldi. Hayotim zoye ketdi.

Bu faqat XV asrning emas, barcha zamonlarning iztirobidir. Buyuk shaxsiyati, keng bilim va dunyoqarashi bilan o‘z davrining tor qoliplariga sig‘magan Navoiy faryod qiladi:
Kimsa yuz yil komronlig‘ qilsa, bilkim, arzimas,
Dahr aro bir lahza bo‘lmog‘liq birov komi bila.
Erksizlik shunday alamli holatki, agar yuz yil o‘z erking bilan yashasang, bir lahza ixtiyorsizlik bu yuz yillik baxtdan nishon qoldirmaydi. Erksizlikning bir daqiqasi ham og‘ir ko‘rgilik ekan. Umriga tatigulik qayg‘u ekan.

“

ODAMZOD HAMISHA KO‘NGLIM NIMA DEYDI DEB EMAS, EL-YURT NIMA DEYDI DEB YASHAR EKAN. KERAK VA KERAKSIZ G‘AM-QAYG‘U, TASHVISHLARNI BOSHIGA ORTAR EKAN, QALBNING ENG HASSOS EZGU TUYG‘ULARINI YASHIRMOQQA MAJBUR BO‘LARKAN. INSON JAMIYATDA YASHAB TURIB JAMIYATNING QONUN-QOIDALARI, URF-ODATLARIDAN, HAYOT TARZIDAN CHETDA TUROLMAS EKAN. OZODLIK ANGLAB YETILGAN ZARURAT DEYILADI. JO‘N SO‘Z BILAN AY TSA, OZODLIKNING O‘ZI TUTQUNLIK EKAN...

Birov komi nima? Bu o‘zganing istagi, xohishi, irodasi, izmi, ruxsati, ra‘yi demakdir. Navoiy uchun erksizlikda ichilgan obihayotdan ko‘ra, o‘z xohishi bilan ichilgan zahar yaxshiroqdir.
Zahrni o‘z komi birla ichsa ondin yaxshikim,
Ichsa hayvon sharbatin nokomlig‘ jomi bila.
Birov zo‘rlab ichirgan qadah nokomlik jomidir. Baytning ma‘nosini lo‘nda qilib aytisa, erksiz yashagandan ko‘ra o‘lgan yaxshi, demakdir.
G‘azal davom etadi. Navoiy baytlar osha go‘zal tashbihlar, aniq hayotiy manzaralar orqali inson hurriyatini ulug‘laydi, bandilik uqubatini chuqur dard bilan tasvirlaydi.
Yuz dilorom aylagandan ravza hibsi yaxshiroq,
Bo‘lmog‘ o‘z vayroni ichra ko‘ngli oromi bila.

Ey ko‘ngil, el subhi ayshi sori boqma, xo‘y qil,
Fardlign‘ vayronida mehnat qura shomi bila.
Agar jannat bog‘iga kirsang, yuzta pari seni o‘rasa-yu, senda birov yoqqa ketish ixtiyori bo‘lmasa, ravza ichra hibsa bo‘lsang, undan ko‘ra o‘z vayronangda ko‘ngling oromi, ozodlik, tinchlik va xotirlamliging bilan qolganing yaxshi. Shoir yuksak san‘at bilan “dilorom” va “ko‘ngil oromi” so‘zlarini yonma-yon keltirib, bu o‘xshash so‘zlarning ikki tamoman boshqa ma‘nolarini ochadi. “Dilorom”ning ma‘nosi bu o‘rinda pari paykar bo‘lsa, “ko‘ngil oromi” deganda xotirjamlik, tinchlik, osoyishtalik holati tushuniladi.
Navoiy yolg‘izlik istagini ko‘p yozgan. Hirotdek zariflar shahrida ham fikri tor, qalbi nursiz, suhbatlari sayoz, g‘iybatchi, mayda odamlar yo‘q bo‘lmagan chog‘i, “parim bo‘lsa uchib qochsam ulusdin to qanotim bor”, degan kabi satrlar “Xazoyin ul maoniy”da talaygina bor. Bu g‘azalda Navoiy ana shunday toifa ichiga tushib qolmoqni tutqunlikka qiyoslaydi, ularning charog‘on subhi ayshidan mehnat shomini, ya‘ni azobli qorong‘ilikni, ularning chamanzordagi anjumanidan fardlik vayronasini, xarobada o‘tgan yolg‘izlikni afzal biladi.

ma’nolar xazinasi qoldirgan, ko‘plab madrasalar, dorushtifolar, ko‘priklar qurdirib, elga yaxshilik qilgan, umrining har lahzasini ezigulik xizmatiga baxsh etgan Navoiydek inson “vahki, umrim barcha zoye bo‘ldi” desa, boshqalar nima desin?
Shunday deyimiz-u ko‘ngilda boshqa bir savol tug‘iladi. Kim erkinroq? Oddiy odamlarni yoki yuksak martaba va shon-shuhrat egalari? Chumoliday o‘z rizqini terib, aravasini haydab, ashulasini aytib yurgan odam ozod va baxtlimi yoki har qadami el nazarida, podshohlik nazarida bo‘lgan ulug‘ amirimi?
She‘r ma‘nosiga kirgan sari kishiga savollar yog‘ilib kelaveradi. Mutlaq ozodlik bormi o‘zi? Inson faqat o‘z istagi bilan yashashi mumkinmi? Jamiyatda yashab turib, inson bu jamiyatning qonun-qoidalaridan tashqarida bo‘la oladimi?
Odamzod hamisha ko‘nglim nima deydi deb emas, el-yurt nima deydi deb yashar ekan. Kerak va keraksiz g‘am-qayg‘u, tashvishlarni boshiga ortar ekan, qalbning eng hassos ezgu tuyg‘ularini yashirmoqqa majbur bo‘larkan. Inson jamiyatda yashab turib jamiyatning qonun-qoidalarini, urf-odatlaridan, hayot tarzidan chetda turolmas ekan. Ozodlik anglab yetilgan zarurat deyiladi. Jo‘n so‘z bilan aytisa, ozodlikning o‘zi tutqunlik ekan...
Odatda she‘rni tahlil qilganda bir: “Shoir undoq deydi, bundoq deydi, falon g‘oyani olg‘a suradi” deya so‘z yuritamiz. Aslida, she‘r nasihat, targ‘ib-u tashviq emas, yurak tebranshirlari ekanini unutamiz. Navoiy ushbu g‘azalda inson erkin tarannum etgan, desam haqiqatning hammasi bo‘lmas. Agar faqat shunday bo‘lganda besh yuz yil o‘tib, bugun u bizing yuragimizni larzaga solmas, xayollarimizni chulg‘amas edi.
G‘azal insonning mangu dardi to‘g‘risida, ko‘rinmas kishanlari to‘g‘risidagi hasratli qissadir. Shoir yuragini to‘ldirgan armon, ichidan chiqqan chuqur xo‘rsiniqdir.

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri

YANGI O‘ZBEKISTON

Oramizdagi odamlar

Yaqinda Buxoro viloyatida “Nasriddin Afandi”, “Sharq taomlari” hamda “Ipak va ziravorlar” festivallari o‘tkazildi. Mazkur tadbirlar Buxoroning eski shahar qismida, tarixiy obidalar bag‘rida bo‘lib o‘tdi. Bunday yig‘inlar qadimiy binolar ichkarisida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar uchun ayni muddao. Zero, shunday tadbirlarda ular milliy qadimiy targ‘ib qiladigan buyumlarni ko‘proq namoyish qiladi. Festivalda sayyohlar Buxoro hunarmandlari tikkan ko‘plab milliy liboslar, sumka va turli esdalik sovg‘alarni o‘z yurtlariga olib ketdi. Ko‘zni qamash tiradigan rangorang buyumlar ko‘rgazmalarini tasvirga muhrlab, yaqinlariga ham ulashdi. Shu tariqa hunarmandlar sayyohlik rivojiga beqiyos hissa qo‘shmoqda.

YOG‘OCHGA JON, QOG‘OZGA RUH BAXSH ETGANLAR

Bundan 4 yil avval Buxoroda bo‘lib o‘tgan “Ipak va ziravorlar” festivali doirasida Galaosiy shahridagi “Naqshband” hunarmandlik markazi ochilgan edi. Prezidentimizning “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, ajratilgan maydonda Buxoro hunarmandchilik maktabi tashkil etildi. Ayni markaz ham bugun qadimiy hunarmandlik turlarini tiklash, rivojlantirishga hissa qo‘shmoqda. Shu bilan birga, turizm rivojiga xizmat qilyapti. U yerdagi tasviriy san‘at muzeyi, restoran hamda mehmonxona mahalliy va xorijlik sayyohlar bilan gavjum. Ularini usta hunarmand Akmal Muhiddinov boshchiligidagi tayyorlanayotgan Buxoro ipak qog‘ozi, kashtachilik namunalari, somonli tasviriy san‘at asarlari ko‘proq qiziqitiraypti. Yog‘och o‘ymakorligi ustaxonasi esa mehmonlarga Buxoro maktabi asosida yo‘lga qo‘yilgan ustoz-shogird an‘analarini so‘zlamog‘da. Markazda xaridor buyurtma qilgan mahsulotining tayyorlanish jarayoni, uning barcha mashaqqat va zavqini kuzatishi mumkin. Bu hunarmandlar uchun ham qulay. Yana bir e‘tiborli tomoni, yoshlar uchun bu jarayon mahorat maktabi vazifasini o‘tamoqda. Buxoro maktabi asosida davom etayotgan ustoz-shogird an‘anasi shu tariqa



noyob hunarimizning qiymati balandligiga ishora. Akmal aka bilan shular xususida gaplashar ekanmiz, “Asosiy faoliyatimiz yog‘och o‘ymakorligi, lekin somondan tasviriy san‘at asarlari yaratish bilan ham 15-20 yildan beri shug‘ullanamiz. Buxoro qadimiy qog‘ozlarini qayta tiklashga erishdik. 2017-yili bu bo‘yicha alohida kitob chiqarishga muvaffaq bo‘ldik”, deydi suhbatdoshimiz faxrlanib.
Akmal Muhiddinovning aytishicha, qadimda shahar markazidan G‘urbingacha bo‘lgan 5 kilometr hududda 240 ta turli hunarmandlik ustaxonasi bo‘lgan. Ular amirlikka xizmat qilgan.



rivojlanib boryapti. Masalan, Akmal Muhiddinov yog‘och o‘ymakorligiga oid 20 ga yaqin tarixiy naqshni qayta jonlantirdi. Buning asosiy omili ustalariga ishlash uchun keng imkoniyat yaratib berilayotganidir.
— Ayni kunlarda Islom sivilizatsiyasi markazidagi Ibn Sino hududiga yog‘och o‘ymakorligi namunalari tayyorlayapmiz. Bundan tashqari, Imom Buxoriy majmuasidagi alloma qabri atrofiga Buxoro uslubida yog‘och ayvon yasayapmiz. Buxoro yog‘och o‘ymakorligi maktabi geometrik naqshlarga boyligi bilan boshqa maktablardan ajralib turadi. Buyurtmamiz ko‘p, — deydi Akmal Muhiddinov.
Yaqinda Prezidentimiz yuqori martabali mehmonlar, Yevropa kengashi prezidenti Antonio Koshta va Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan Samarqand Xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasida bo‘ldi. Ayni manzilda ham ularga xalqimizning betakror badiiy, hunarmandlik va musiqliq madaniyati namoyishi etildi. Hunarmandlarimizning qo‘l mehnati yuqori martabali mehmonlar e‘tiborini tortdi.
Joriy yil aprelida Yaponiyaning Inami shahrida “World Wood Day” yog‘och o‘ymakorligi hunarmandchilik tadbiri bo‘lib o‘tdi. Unga boshqa davlatlardan bir nafardan, faqat O‘zbekistondan ikki nafar yog‘och o‘ymakori taklif etildi. Bu ham bo‘lsa,

Tarixchular mazkur obyektni o‘rganib, 250 ga yaqin hunarmandlik ustaxonasi qum barxani ostida qolib, tashlandiq joyga aylangan edi. Bundan 10-15 yil oldin ham bu joylar tashlandiq yer edi. Keyingi yillardagi islohotlar, madaniyat, hunarmandchilikka katta e‘tibor sabab qadimiy ustaxonalar yangi O‘zbekiston qiyofasiga mos ravishda qayta tiklandi.
Besh yuzdan ziyod shogirdning ustози Akmal Muhiddinov shular haqida so‘zlar ekan, bu makonda tug‘ilib, yaqinda olamdan o‘tgan 97 yoshli otaxon bilan ko‘proq suhbatlashmaganidan afuslandi. Tirik tarix bo‘lgan nuroniy “Ilgari bu yerda 4-5 ta ustaxona bor edi, 1976-yilda eng oxirgi etikdo‘zlik ustaxonasi buzib tashlandi”, degan ekan. Bu gaplardan so‘ng ko‘z o‘ngimizda o‘sha davrlar jonlandi. Xayolimizdan noyob hunarmandlik mahsulotlari o‘tdi. Akmal aka esa suhbatni davom ettiradi:
— Hunarmandlik markazimiz “Naqshband” deb nomlanishining sababi bor. Hazrat Bahouddinning taxallusi Naqshband bo‘lganini yaxshi bilamiz. Bu so‘z “matoga gul bosuvchi” degan ma‘noni bildiradi, — deydi suhbatdoshimiz. — Biz ham Bahouddin Naqshband shug‘ullangan bu hunarning qadimiy yo‘llari, uslublarini qayta tiklayapmiz. Bir-ikki yil oldin Malazyiyadan naqshbandiya tariqatchilari keldi. Ular markazimizni ko‘rib, matoga gul bosish hunarining asl vatani Buxoro

ekanini tan oldi. Darvoqe, sayyohlardan so‘z ochilganida, bir gapni aytishim kerak. To‘qi zargarondagi galereyamizga kelgan sayyohlarning aksari u yerga qo‘yilgan buyumlar rostdan ham O‘zbekistonda tayyorlanganiga ishonmasdi. Bu yerga kelganlar mahsulotlarimizning tayyorlanish jarayonini ko‘rib, kuzatadi. Mahorat darslarimizda qiziqish bilan qatnashadi. Shuningdek, ularning talabi bilan milliy pishiriqlar, ko‘k somsa, non yopish jarayonlarini ko‘rsatib beramiz. Navro‘zda katta bayram uyushtirib, sumalak qildik. Ko‘p sayyohlar urf-odatlarimizga astoydil qiziqib, tarixini bilishga intiladi. Shuning uchun bolani beshikka solishdan tortib, nikoh to‘ylarimizdagi qadimiy urf-odatlarimizni ham ko‘rsatib beramiz.
Hunarimiz sabab o‘tgan yili 7 ta davlatga borib keldim. Qayerga bormay, Buxoro haqida bilishadi, hunarmandlar yurti deya e‘tirof etishadi. Qadimiy hunarlarimiz dovruq‘i ko‘plab chet ellarga yetib borgan. Turkiyalik juda mashhur abri bahor (qo‘lyozma kitob sahifalarini bezash san‘ati, shuningdek, shu usulda yaratilgan tasvir) ustasi shogirdlari bilan Buxoroga ziyoratga kelganida o‘zbek jurnalistlariga intervyu bergan. U abri bahor san‘atini bundan 100 yil oldin buxorolik ustalar Turkiyaga borib rivojlantirgani, turklar bu san‘atni hozirgacha asrab-ayaylab kelayotgani, umuman, abri bahor san‘atining asl vatani Buxoro ekanini tan oldi. Shunday e‘tiroflardan kuch olib, biz bu san‘atni yanada jonlantirdik. Buxoro qadimiy kashtachiligi bilan ham oilaiv shug‘ullanamiz. Bu bo‘yicha markazda 10 dan ziyod, kasanachilik asosida 30 ga yaqin ayolni ish bilan ta‘minlaganmiz. Umuman olganda, 70 ga yaqin kishining uyida o‘tirib, biz bilan ishlashiga erishdik.
Suhbatdoshimizdan Buxoro qog‘ozini tayyorlash haqida ham batafsil ma‘lumot berishini so‘radik. Uning aytishicha, aslida, hamma yerda qog‘oz ishlash chiqarish texnologiyasi bir xil. Biroq har bir hududning o‘z xomashyosi, qog‘ozining o‘ziga xosligi bor. Jumladan, Buxoro qog‘ozini pishilqili bilan ajralib turadi. Sababi, Buxoro qog‘ozini ishlab chiqarish jarayonida xomashyo tarkibiga muayyan o‘simliklar qo‘shiladi. Bu esa qog‘ozni mog‘orlashdan, bit, kana, sichqon, kalamush kabi zararkunandalardan asraydi. O‘rmi kelganida faxr bilan aytilish joizki, Naqshband markaziga kelgan arab sayyohlari “Biz qog‘ozlarimizni asray olmayapmiz. Vakuumda saqlasak ham yemirilib boryapti. Sizlarning qog‘ozlaringiz esa butun turibdi”, deya hayratlangan.
Bunday e‘tirof Akmal Muhiddinovdek hunarmandlar mehnatiga berilgan munosib baho. 15 yil davomida izlanib, xomashyoga qo‘shish uchun kashf etilgan o‘simliklar nomi hozircha sir bo‘laqolsin. Chunonchi, Buxoroda har qanday o‘simlik o‘savermasligini hunarmand bilan suhbatdan so‘ng yaxshiroq bilib oldik.
Buxoroda daraxt parvarishlash oson emas, bu yerda faqat sho‘rga, hududning inqij havosiga chidagan o‘simliklarga o‘sadi. Bunday sharoitda o‘sgan o‘simlik esa g‘oyat pishiq bo‘ladi. Pishiq xomashyodan olingan qog‘oz ham, albatta, uzoqqa chidaydi. Yana ma‘lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, Buxoro qog‘ozini qariyb bir asr saqlangan. U Samarqand qog‘ozidan juda yuqpaligi, paxta, eski matolar hamda zig‘ir poyasidan tayyorlangani bilan ajralib turadi. Ammo eng sifatlil qog‘oz — ipak qog‘oz. Buxorolik hunarmandlar qog‘oz ishlash chiqarishda shulari ma‘yolagan holda yondashyapti. Muhimi, Akmal Muhiddinov kashtachilik, abri bahor san‘ati, yog‘och o‘ymakorligi, somondan tasviriy san‘at asarlari tayyorlash barobarida Buxoro qog‘ozining qadr-qiyomatini saqlab qolishga ham astoydil bel bog‘lagan. Bularning bari hunarmandlardan o‘z ishiga fidoyilikni, asl davomchilikni talab qiladi. Zero, hunarmandlik har kuni ham daromad keltiravermasligini bundaylar yaxshi biladi. Ba‘zan bugun yasagan mahsulotni 10 yildan keyin sotiladi. Ba‘zan hali to‘la tamomlanmagan qo‘l mehnati uchun haq to‘lashadi.
— Hunarmandlik bu — tarix. Uni asrab qolish kerak. Asrash uchun esa katta jasorat zarur. Jasorat nimada? Hunarning odatlari faqat boyib ketaman deb qumash emas, boy merosni saqlashga hissa qo‘shaman deb ishlash kerak. Shundagina pulning o‘zi fidoyi hunarmandni topib kelaveradi. Buning uchun esa barcha shart-sharoit yaratib berilmoqda, — dedi suhbat yakunida Akmal Muhiddinov.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarlari tahririyati” DM	Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas‘ul.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646. 36191 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.	Navbatchi muharrir: Bahar Xidirova Musahhili: Sherzod Mahmudov Dizayner: Xurshid Abdullayev
MUASSIS: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	Bosh muharrir: Salim DONIYOROV	“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.	Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabab ko‘chasi, 85-uy
Qabulxona: (71) 233-56-33	Devonxona va e‘lonlar: (71) 233-70-98	E-mail: info@yuz.uz	O‘zA yakuni — 22:45 Topshirildi — 23:05